

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD 03/31.03.2021. Fil.78.04 RAQAMLI
ILMIY KENGASH
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

ALIBOYEVA NIGINA ALISHER QIZI

**BOLALAR BADIY ADABIYOTINI TARJIMA QILISH MUAMMOLARI
(ROALD DAL ASARLARI ASOSIDA)**

**10. 00. 06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va
tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Termiz – 2023

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on philological
sciences**

Aliboyeva Nigina Alisherovna

Bolalar badiiy adabiyotini tarjima qilish muammolari (Roald Dal asarlari asosida)
.....3

Алибоева Нигина Алишеровна

Проблемы перевода детской художественной литературы (на основе
произведений Роальда Даля)29

Aliboyeva Nigina Alisherovna

Problems of translating children's fiction (based on the works of Roald Dahl)
.....57

Эълон қилинган ишлар рўйхати

Список опубликованных работ

List of published works.....63

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD 03/31.03.2021. Fil.78.04 RAQAMLI
ILMIY KENGASH
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

UO‘K: 821.153.9.09-93

ALIBOYEVA NIGINA ALISHER QIZI

**BOLALAR BADIY ADABIYOTINI TARJIMA QILISH MUAMMOLARI
(ROALD DAL ASARLARI ASOSIDA)**

**10. 00. 06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va
tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Termiz – 2023

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2021.1.PhD/Fil1603 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Termiz davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus) ilmiy kengash veb-sahifasining www.tersu.uz hamda «ZiyoNet» axborot-ta'lim portali www.ziynet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Xoshimxo'jayeva Mohiruh Muzaffarovna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar: Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Arustamyan Yana Yuryevna
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot: Urganch Davlat Universiteti

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD 03/31.03.2021. Fil.78.04 raqamli Ilmiy kengash asosida tashkil etilgan bir martalik ilmiy kengashning 2023 yil «31» may soat 10:00dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 190111, Termiz sh., Barkamol avlod ko'chasi, 43. Tel.: (376) 221-71-17; e-mail: termizdu@umail.uz.)

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№163 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 190111, Termiz sh., Barkamol avlod ko'chasi, 43.Tel.: (376) 221-74-55

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «25» may da tarqatildi.
(2023 yil «25» may dagi № 31 - raqamli reestr bayonnomasi)



B.Umurqulov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

A.A.Eshmuminov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, filologiya fanlari
doktori (DSc), dotsent

P.U.Bakirov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi,
f.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tarjimashunosligida bolalar badiiy adabiyotining tarjimasi xususan, leksika, grammatika, stilistika va fonetikaning turli xususiyatlari bilan bog‘liq murakkab va ko‘p qirrali intellektual faoliyatdir. Shu munosabat bilan, bolalar badiiy adabiyotini tarjima qilish muammolarini tadqiq etish uchun ingliz bolalar adabiyotining mavjud tarjimalarini qiyosiy-chog‘ishtirma o‘rganish katta ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi vaqtda jahon tilshunosligida bolalar adabiyotida uchraydigan tarjima va talqinlardagi leksik, grammatik, fonetik, stilistik transformatsiyalarni aniqlash, hamda madaniyatlararo farqlar aspektida mavjud tarjimalarini qiyoslab tahlil qilish sohasida va boshqa ko‘plab ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlarning aksariyati tarjimaning adekvatliligi va to‘g‘riligini aniqlash uchun leksik birliklar (toponimlar, zoonimlar, jargon leksikasi, realiyalar, qandolatchilik maxsulotlari nomlari)ning tarjimasini tahlil qilishga qaratilgan.

O‘zbek tilshunosligida ham bu sohada yetarlicha tadqiqotlar olib borilgan. Ammo tadqiqotlarning asosiy qismi o‘zbek asarlarini boshqa tillarga tarjima qilishning o‘ziga xos xususiyatlariga bag‘ishlangan. Ushbu omil xorijiy mualliflar asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilish muammolari bilan bog‘liq tadqiqotlarning ahamiyatini kuchaytiradi, chunki bunday ishlarning natijasi tarjima sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ma’lumki, adekvat tarjima va uning bola-o‘quvchi tomonidan to‘g‘ri idrok etilishi uning shaxs sifatida shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, zamonaviy xorijiy bolalar adabiyotining ko‘plab na’munalari o‘zbek tiliga tarjima qilinmagan, mavjud tarjimalari esa rus tili orqali tarjima qilingan. Bu, o‘z navbatida, bolalar badiiy adabiyoti tarjimasi xususiyatlarini har tomonlama o‘rganishning muhimligini ko‘rsatadi. Ushbu ishning inovatsionligi xozirgacha ingliz bolalar adabiyoti tarjima muammolari grammatik, leksik, fonetik va stilistik transformatsiyalar nuqtai nazaridan kompleks qiyosiy-chog‘ishtirma tadqiqot sifatida ko‘rib chiqilmaganligi bilan izohlanadi.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti ma’lum darajada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli, 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-sonli “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar Ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlarida hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son qarorida “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, o‘qish madaniyatini oshirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrda 781-sonli “2020-2025-yillarda o‘qish madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash haqida”gi qarorida, O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktabrdagi O‘RQ-576-sonli Qonunida “Fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-maydagi 376-sonli “Jahon adabiyotining eng sara namunalarini o‘zbek tiliga, hamda o‘zbek adabiyoti durdonalarini chet tillariga tarjima qilish va nashr etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi

qarorida shuningdek ushbu sohada qabul qilingan boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan vazifalarni bajarishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari bilan bog‘liqligi. Ushbu tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan I. “Axborot jamiyati va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish bo‘yicha innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari”.

Muammoni o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida R.Job, A.P.Covey, M.Beyker, R.Gachecheladze, V.N.Komissarov, V.G.Gak, K.I.Chukovskiy, L.S.Barxudarov, L.K.Latishev, I.Retsker, N.K.Garbovskiy, V.S.Vinogradov, T.A.Kazakova, A.V.Fedorov¹, o‘zbek tilshunosligida G.Salomov, J.Sharipov, G.Rahimov, F.Saidovlarning² ilmiy ishlarida tarjimashunoslikning turli masalalari bo‘yicha tadqiqotlar olib borildi.

“Bolalar adabiyoti” tushunchasi taniqli amerikalik pedagog va adabiyotshunos P.Holideyl, ingliz yozuvchisi M.O.Grenbi³, rus adabiy tanqidchisi V.G.Belinskiy⁴ hamda o‘zbek tilshunosi D.Xalilova⁵lar tomonidan o‘rganilgan.

Bolalar badiiy adabiyotini tarjima qilish muammosiga nisbatan qiziqish XX asrda paydo bo‘ldi. V.Dukmak, A.Chelalga, X.Z.Huseyn, Sh.Berri, T.V.Gabriele, E.Xeni⁶, A.Yu.Isakovskaya, I.S.Razina, A.S.Yorkina, L.Tzinyuy, A.V.Mishchenko⁷

¹ Jobe R. Translation. In: Hunt, (Ed.). International companion encyclopedia of children’s literature. New York: Routledge, 1996.– 944 p; Cowie A.P. Phraseology: Theory, Analysis, and Applications. – USA, Oxford University Press, 2012. – 272 p; Baker M. Corpus-based Translation Studies: the Challenges that Lie Ahead. In Terminology, LSP and Translation. Studies in Language Engineering in Honour of Juan C. Sager, H. Somers (ed). – Amsterdam: John Benjamins, 1996. – 271 p; Гачечиладзе Г.Р. Художественный перевод и литературные взаимосвязи. – М: Советский писатель, 1972. – 53 с; Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты): Учеб.для ин-тов и фак. иностр. яз. – М.: Высшая школа, 1990. – 253 с; Гак В.Г. Языковые преобразования. – М.: Школа «Языки русской культуры», 1998. – 141 с; Чуковский К.И. Высокое искусство. – М: Терра - Книжный клуб, 2001.- 54 с.; Бархударов Л.С. Язык и перевод (Вопросы общей и частной теории перевода) / Л.С. Бархударов. – М.:Международные отношения, 1975. – 196 с; Латышев Л.К. «Курс перевода» (Эквивалентность перевода и способы её достижения), Учебное пособие. — М.:Международные отношения, 1981. – 248 с.; Рецкер Я.И. Теория перевода и переводческая практика. – Р. Валент, 2007. – 241 с; Гарбовский Н.К. Теория перевода. – Издательство Московского Университета, 2004. – С. 67; Виноградов В.С. Перевод. Романские языки. Общие и лексические вопросы. – Москва: Книжный дом «Университет», 2009. – 43 с; Казакова Т.А. Художественный перевод. Теория и практика. – Санкт-Петербург: Инъязиздат, 2008. – 18 с; Федоров А.В. Введение в теорию перевода: лингвистические проблемы. – Москва: Изд. лит. на иностр. яз.,1958. – с 394;

² G‘aybulloh as-Salom Tarjima nazariyasi va amaliyoti fanidan ma‘ruza matni. – Toshkent, 2003. – 54 b; Sharipov J. Badiiy tarjimalar va mohir tarjimonlar, T., 1972, 76 b; F.Раҳимов. Таржима назарияси ва амалиёти. – Дарслик-мажмуа. — Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2016. – 176 б; Саидов Ф. Матн ва таржима:Филол. фанлари д-ри ...дисс. – Тошкент: 1992;

³ Hollindale P. Signs of Childness in Children’s Books/ P. Hollindale. – Paperback Bunko, January 1, 1750. – 140 p; Grenby M.O. The origins of children’s literature, University of Newcastle upon Tyne, Andrea Immel, Princeton University, New Jersey. – Publisher: Cambridge University Press, 2009. – 324 p;

⁴ Белинский В.Г., Чернышевский Н.Г., Добролюбов Н.А. О детской литературе. М., 1983 – 432 с.

⁵ Xalilova D. “Bolalar adabiyoti va folklor” fanidan o‘quv metodik majmua, Toshkent, 2005. – 24 b.

⁶ Dukmak W. The Treatment of Cultural Items in the Translation of Children’s Literature (The case of Harry Potter in Arabic), 2021. – 330 p; Chelalga A. Investigating Difficulties in Translating Cultural References in Children’s Literature. Case study: J. M. Barrie’s Peter Pan, 2016. – 65 p.; Zeynab Huseyn T.K. Strategies and Motivations in Translated Children’s Literature: Defoe’s Robinson Crusoe as a Case Study, 2010. – 129 p; Berry Ch. Publishing, translation, archives: Nordic children’s literature in the United Kingdom, 2013. – 470 p; Thomson-Wohlgenus Gabriele. Children’s Literature and its Translation. An Overview, 1998. – p 37; Xeni E. Issues of Concern in the Study of Children’s Literature Translation, 2011. – 31 p;

⁷ Исаковская А.Ю. Детская сказка в русской советской литературе (рецепция мировых сюжетов) : Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 2012. – 24 с; Разина И.С. Соотношения категорий реалистического и

va bizning vatandoshlarimiz M.K.Bakoyeva, G.A.Ostonova, M.I.Sobirova, M.A.Xolmatova, G.Salomov, K.Mussayev⁸ kabilarning ishlarida buni yaqqol kuzatish mumkin. Sanab o‘tilgan tadqiqotlar katta faktik va nazariy materiallar asosida bajarilgan bo‘lib, tarjima jarayonini bolalar badiiy adabiyoti hamda umumiy badiiy adabiyot bo‘yicha ilmiy xulosalarni o‘z ichiga oladi.

Biroq, XX-XXI asrlar boshidagi zamonaviy bolalar adabiyotini jahon va o‘zbek tarjimashunosligida tarjima qilishning fonetik, leksik, grammatik va stilistik muammolarini hal qilish uchun mos transformatsiya turlarini tanlash kabi tarjima masalalari sanab o‘tilgan tadqiqotlar doirasidan tashqarida qoldi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan aloqasi. Dissertatsiya mavzusi Termiz davlat universitetining Ingliz tili va adabiyoti kafedrasida “Tilning leksik-semantik tizimini tipologik o‘rganishning dolzarb muammolari: diaxroniya va sinxroniya” mavzusida olib borilayotgan ilmiy – tadqiqot ishlari uzoq muddatli rejasining ajralmas qismidir (ITA-12-09-2012).

Tadqiqotning maqsadi sifatida ingliz bolalar badiiy adabiyotining rus va o‘zbek tilida mavjud bo‘lgan tarjimalarini orqali ular tarjimasining leksik, grammatik, fonetik va stilistik muammolarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

bolalar badiiy adabiyoti masalasining nazariy rivojlanishidagi eng muhim ishlarni aniqlash, shuningdek, ushbu tushunchaning chuqur tahlili orqali tadqiqotning nazariy asoslarini ochib berish, bolalar badiiy adabiyotida tarjimaning rolini aniqlash;

o‘zbek, ingliz va rus bolalar badiiy adabiyotidagi madaniyatlararo farqlanish xususiyatlarini tavsiflash;

Roald Dalning “Charli va shokolad fabrikasi” asarining rus va o‘zbek tarjimalari misolida leksik, grammatik, fonetik va stilistik transformatsiyalarni tahlil qilish;

Roald Dalning “Matilda” asarini ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish muammolarini madaniyatlararo leksemalar tahlili, shuningdek, his-tuyg‘ular (g‘azab, quvonch va qo‘rquv)ni ifodalovchi leksemalar tahlili orqali asoslash.

фантастического в современной британской интеллектуальной детской литературе (на примере творчества Джонс У. и Амонда Д.): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. Нижний Новгород, 2018. – 28 с; Еркина А.С. Проблемы перевода детской художественной литературы на примере повести-сказки Отфрида Пройслера “Die kleine hexe”: Выпускная квалификационная работа. – Владивосток, 2018. – 67 с; Цзинъюй Л. Особенность перевода волшебных сказок на примере перевода китайских сказок на русский язык: магистерская диссертация по направлению: 45.04.02 – Лингвистика. – Екатеринбург, 2019. – 94 с; Мищенко А.В. Когнитивно-коммуникативные особенности детского американского кинодискурса и способы их передачи при переводе (на материале телесериала “KC Undercover”): магистерская диссертация по направлению подготовки: 45.04.02 - Лингвистика / Мищенко, Анастасия Викторовна. - Томск, 2020. – 110 с.

⁸ Бақоева М. Англия ва АҚШ адабиётидан ўзбек тилига шеъррий таржима ва қиёсий шеършунослик муаммолари: Филол. фанлари д-ри ...дисс. – Тошкент, 2004. – 314 б; Оstonova Г.А. “Минг бир кеча” асари ўзбекча таржималарининг қиёсий тадқиқи (давр, услуб ватаржима аниқлиги муаммолари): Филол. фанлари д-ри ...дисс. Тошкент, 2016. – 128 с; Собирова М.И. «Бобурноманинг» инглизча таржималарида муаллиф услуби ва бадиятини қайта тиклаш муаммолари (Лейден-Эскриж, Беверидж ва Текстон таржималарининг қиёсий тахлили асосида): Филол. фанлари д-ри ...дисс. Тошкент, 2016. – 122 б; Холматова М.А. Проблемы искусственного перевода классической лирики на английский и русские языки: Филол. фанлари д-ри ...дисс. – Тошкент, 2016. – 130 с; Mussayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. –Toshkent, Fan, 2005. – 121 b.

Tadqiqotning obyekti sifatida Roald Dahlning “Charli va shokolad fabrikasi”, “Matilda” asarlari hamda ularning rus va o‘zbek tillaridagi tarjimalari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini Roald Dahlning “Charli va shokolad fabrikasi” va “Matilda” asarlarini bevosita tarjima qilishda uchraydigan leksik, grammatik, fonetik hamda stilistik muammolar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritish uchun leksik-semantik, qiyosiy, chog‘ishtirma, tasniflash usuli, lingvomadaniy tahlil, kontekstual tahlil, shuningdek statistik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagicha:

bolalar adabiyoti badiiy asar tarjimalarida kognitiv tajriba, hissiy idrok, yosh kabi faktorlarga ko‘ra tafovutli ekanligi isbotlangan;

“Charli va shokolad fabrikasi” asarining rus va o‘zbek tillaridagi tarjimalarini qiyosiy-chog‘ishtirish orqali leksik, grammatik, fonetik va stilistik muammolari aniqlangan;

“Matilda” asarining asl nusxasida va ruscha tarjimasida mualliflik zoonimlari va dermatozlari qo‘pol iboralar sifatida foydalanilganligi isbotlanib, ularni o‘zbek tiliga tarjima qilish variantlari asarning bilvosita tarjimasini orqali taklif etilgan;

asar qahramonlari nutqida ishlatilgan iboralarning ekspressivligini adekvat tarzda yetkazish muhim rol o‘ynaydigan hissiyotlar (quvonch, g‘azab, qo‘rquv)ga kategoriyalashtirish lozimligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

zamonaviy bolalar adabiyotining yangi tarjimalarini yaratish bo‘yicha o‘zbek tarjimashunosligining metodologik bazasi to‘ldirildi;

R.Dalning “Matilda” asarining ingliz tilidan o‘zbek tiliga bevosita tarjimasini amalga oshirildi;

bolalar badiiy asarlari tarjimalarini o‘rganish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqildi va o‘quv jarayoniga joriy etildi;

bolalar uchun mo‘ljallangan asarlar tarjimalarini qiyosiy tahlil qilishning ilmiy-nazariy ahamiyati va ularning “Tarjimashunoslik”, “Tarjima nazariyasi va amaliyoti”, “Yozma tarjima” va “Badiiy tarjima” kabi fanlar bo‘yicha darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarini takomillashtirishdagi o‘rni asoslandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy ma’lumotlar ilmiy manbalardan olinganligi, tahlilga jalb qilingan ma’lumotlarning katta miqdori material, tan olingan nazariyalar, ishlatilgan tahlil usullari, nazariy qarashlar va xulosalar amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tarjimashunoslikning yangi yo‘nalishlarini o‘rganishda, xususan tarjimaning nazariy asoslarini tadqiq etishda, bolalar asarlari tarjimasining xususiyatlarini izohlashda, lingvomadaniy usullardan foydalanishda va tadqiqot manbalarini aniqlashda namoyon bo‘ladi. Dissertatsiyada bayon etilgan qarashlar bolalar adabiyotining ingliz tilidan rus va o‘zbek tillariga bevosita tarjimasini yoritishda ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati “Tarjimashunoslik”, “Tarjima nazariyasi va amaliyoti”, “Yozma tarjima”, “Badiiy tarjima” bo‘yicha darsliklar va qo‘llanmalarni ishlab chiqishda va ushbu fanlar bo‘yicha nazariy va amaliy

marshg'ulotlarni o'tkazish, magistraturada "Tarjima amaliyoti", "Zamonaviy tilshunoslikning dolzarb muammolari" yo'nalishlari bo'yicha maxsus kurslarni tashkil etishda foydalanish mumkinligi bilan tafsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot natijalari quyidagi sohalarda joriy yetildi: bolalar adabiyoti badiiy asar tarjimalarida kognitiv tajriba, hissiy idrok, yosh kabi faktorlarga ko'ra tafovutli yekanligi isbotlanganligiga oid yangilikdan "Ingliz tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va o'quv jarayonlariga joriy yetish" nomli loyihada foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 9-yanvardagi 26/30.02.01-son ma'lumotnomasi). Taklif etilgan motivasion materiallar loyihaning mazmunini boyitishga xizmat qilgan;

"Matilda" asarining asl nusxasida va ruscha tarjimasida mualliflik zoonimlari va dermatozlari qo'pol iboralar sifatida foydalanilganligi qiyosiy-chog'ishtirma tahlili orqali isbotlangan, shuningdek, ularni o'zbek tiliga tarjima qilish variantlari asarning bilvosita tarjimasida orqali taklif etilganligiga oid yangilikdan "Surxondaryo" telekanalida "Assalom Surxon", "Xalq bilan muloqot", "Kun mavzusi" teledasturlari uchun materiallar tayyorlashda bolalar badiiy adabiyotini tarjima qilish muammolarini aniqlashga qaratilgan amaliy tadqiqot natijalaridan foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi Surxondaryo viloyati teleradiokompaniyasining 2022-yil 8-yanvardagi 01-01-1-son ma'lumotnomasi).

Tadqiqotning ilmiy natijalardan foydalanish bolalar dasturlari doirasini zamonaviy adabiyotlarni tarjima qilish muammolari to'g'risida ko'ngilochar ma'lumotlar bilan boyitishga xizmat qilgan; asar qahramonlari nutqida ishlatilgan iboralarning ekspressivligini adekvat tarzda yetkazish muhim rol o'ynaydigan hissiyotlar (quvonch, g'azab, qo'rquv)ga tasniflash usuli orqali kategoriyalashtirish asoslanganligiga oid yangilikdan FA-F1-G003 "Xozirgi Qoraqalpoq tilida funksional so'z yasalishi" fundamental loyihasida qo'llanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Qoraqalpog'iston bo'limining 2022-yil 20-avgustdagi 17.01/159-son ma'lumotnomasi). Natijada loyihada tarjimaning leksik-grammatik transformasiyalar mohiyatiga izoh berilgan.

Tadqiqot natijalarini aprobatsiyasi. Dissertatsiya tadqiqoti natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika anjumanlarida ilmiy ma'ruzalar shaklida sinovdan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusida 15 ta ilmiy maqola chop etildi, jumladan 4 tasi respublika ilmiy jurnallarida, 3 tasi xalqaro jurnallarda, 4 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining ilmiy natijalarini nashr etish uchun tavsiya etilgan jurnallarda, 2 tasi respublika va 6 tasi xalqaro ilmiy anjumanlar to'plamlarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 131 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusini dolzarbligi va yangiligi asoslandi, ishning ilmiy-nazariy, amaliy ahamiyati aniqlanadi, dissertatsiyaning maqsadi, vazifalari aniqlanadi, muammoning rivojlanish darajasi aniqlanadi, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xalqaro ilmiy tadqiqotlar ko'rib chiqiladi va tadqiqot metodologiyasi aniqlanadi.

Tadqiqotimizning uchta fasldan iborat bo'lgan, **“Bolalar badiiy adabiyotini o'rganishning nazariy asoslari va uni tarjima qilish muammolari”** nomli birinchi bobida bolalar adabiyoti tushunchasi va uning tarjimasi muammolari ko'rib chiqilgan, bundan tashqari, madaniyatlararo tafovut muammosi tadqiq etilgan va dissertatsiya mavzusiga tegishli ilmiy tadqiqotlar tahlili keltirilgan.

Ushbu qismda bolalar badiiy adabiyoti tarjimasi muammosi tarjimashunoslikda alohida ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlangan. Bolalar adabiyotini tarjima qilish – bu bolaning tug'ilishidan o'smirligigacha bo'lgan ulkan intellektual rivojlanish va emotsional o'zgarishlar davrini o'z ichiga olgan bolalar auditoriyasi uchun ijod qilish va tarjima qilish bilan bog'liq tilshunoslik taraqqiyotining ko'plab muammolarini tadqiq etish demakdir.

“Bolalar adabiyoti tushunchasi va uning tarjimasining xususiyatlari” nomli birinchi bobning birinchi faslida P.Xollindeyl, Yu.M.Lotman, M.O.Grenbi, V.G.Belinskiy, D.Xalilova kabi taniqli nazariyotchilar tomonidan ko'rib chiqilgan bolalar badiiy adabiyoti tushunchasi tahlil qilingan. V.N.Komissarov, K.I.Chukovskiy, S.Ya.Marshak, G.Lati, G.Fedorov, L.S.Barxudarov, E.O'Sullivan, R.Oittinen, Dj.Bishop, M.Tsay kabi olimlar tadqiqotlari asosida badiiy adabiyot tarjima muammosi ko'rib chiqilgan.

Ko'pgina yozuvchilar “bolalar adabiyoti”ni faqat fantastika bilan cheklangan, asosan ko'ngil ochish uchun mo'ljallangan asar deb hisoblamaydilar. Amerikalik pedagog va adabiyotshunos Piter Xollindeyl o'zining mashhur “Signs of Childness in Children's Books” kitobida shunday deydi: “Bolalar adabiyoti – bu ijodiy qiziqishning o'ziga xos umumiy xususiyatlariga ega bo'lgan matnlar jamlanmasi bo'lib, u bolalar adabiyoti sifatida ma'lum sabablarga ko'ra o'zining bolaligi tugamagan deb hisoblovchi o'quvchining o'qish jarayonidagina namoyon bo'ladi”⁹.

Rus yozuvchisi va adabiyotshunosi V.G.Belinskiy shunday deb yozgan edi: “Ha, bolalar yozuvchisini yetishtirish uchun juda - juda ko'p sharoitlar kerak: sizga inoyatli, mehribon, muloyim, xotirjam, go'daklarcha sodda fikrlovchi, yuksak ilmga ega, o'qimishli, ma'rifatli qarashlarga ega hamda nafaqat jonli tasavvur, balki jonli, she'riy fantaziyaga ega bo'lgan inson kerak. Albatta bunda, bolalarga bo'lgan muhabbat, bolalarning ehtiyojlari, xususiyatlari va xilma-xilligi to'g'risidagi chuqur bilimga ega bo'lish eng muhim shartlardan biridir”¹⁰.

O'zbek tadqiqotchisi D.Xalilovning fikriga ko'ra, “bolalar adabiyoti bu – so'z san'ati va o'qitish vositasidir. Bolalar uchun yozilgan har qanday san'at asari ularning yoshiga, darajasiga mos kelishi, yosh o'quvchilar qalbida fikrlar uyg'otishi,

⁹ Hollindale, P. Signs of Childness in Children's Books/ P. Hollindale. – Paperback Bunko, January 1, 1750. – P.140

¹⁰ Белинский В.Г., Чернышевский Н. Г., Добролюбов Н. А. О детской литературе. М.,1983. С. 91.

yorqin obrazlarga boy bo‘lishi, yuksak ideallarga, buyuk va yorqin asarlar yaratishga ilhomlantirishi kerak. Eng muhimi, mavzular tushunarli, sodda va qiziqarli tilda taqdim etilishi kerak¹¹”.

Tarjima muammolari nuqtai nazaridan bolalar adabiyotiga quyidagi ta’rif berilishi mumkin: bolalar badiiy adabiyoti nafaqat lingvistik, balki ekstralingvistik xarakterga ega bo‘lgan jahon adabiyotining bir qismidir, chunki u ta’sirchan, nozik va yetarlicha kognitiv tajribaga ega bo‘lmagan bola-o‘quvchiga mo‘ljallangandir, bu esa tarjimondan butun asarni bola nuqtai nazaridan baholashni talab qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz bolalar adabiyotida bo‘lishi kerak bo‘lgan quyidagi mezonlarni taklif qildik:

- 1) ma’lumotlarni to‘g‘ridan-tog‘ri berilishi;
- 2) ma’lumotlarning ravshan va sodda ifodalanishi;
- 3) ko‘ngilocharlik vazifasining ustunligi.

Ma’lumotlarni to‘g‘ridan-tog‘ri yetqazilishi bolalar adabiyotida; muhim faktor xisoblanadi, chunki bola-o‘quvchi har doim ham bilvosita ma’lumotlarni tushuna olmaydi. Ayniqsa, metafora, istehzo va personifikatsiya kabi stilistik vositalardan foydalanishda ehtiyot bo‘lish lozim.

Ma’lumotlarning ravshan va sodda ifodalanishi o‘quvchining yoshini hisobga olgan holda asosiy mezonlardan biri sifatida keltiriladi. Shuning uchun nafaqat muallif balki tarjimon ham syujetni oddiy tilda bayon qilishi kerak, ba’zan hatto kattalar uchun ham qiyin bo‘lgan murakkab tuzilmalardan qochish lozim.

Yana bir muhim mezonlardan biri bu – ko‘ngilocharlik vazifasining ustunligidir. Shuni ta’kidlash kerakki, umuman bolalar adabiyoti to‘rtta asosiy vazifalarga ega: kognitiv, axloqiy, estetik va ko‘ngilocharlik. Bizning fikrimizcha adabiyotning ko‘ngilocharlik vazifasi eng muhim mezon sifatida maydonga chiqadi, bunga sabab, agar asar qiziqarli bo‘lmasa, bolani kitobni o‘qishga majburlash qiyin. Kattalar kerakli ma’lumotni olish uchun asar ko‘ngil ochar bo‘lishi shart emas, ammo asar qiziqarli bo‘lmasa bola-o‘quvchi shunchaki o‘qishni to‘xtatadi. Natijada, qolgan adabiyot vazifalarining hech biri ish bermaydi.

Birinchi bobning **“Bolalar badiiy adabiyotidagi madaniyatlararo tafovut muammolari”** nomli ikkinchi faslida rus, ingliz va o‘zbek madaniyatlararo tafovutlari ko‘rib chiqilgan bo‘lib, bunda xar bir tilda XX asrga oid bo‘lgan bir necha asar tahlil qilindi. Birinchi navbatda rus bolalar adabiyotining o‘ziga xos xususiyatlari ochib berildi.

Ma’lumki, bolalar tomonidan eng sevib va zavq bilan o‘qiladigan kitoblar to‘plami bu – 1921-1958 yillar oralig‘ida yozilgan Korney Chukovskiyning “Doktor Aybolit”, “Barmoley”, “O‘g‘irlangan quyosh”, “Ochko‘z” va boshqa asarlar to‘plamidir¹². Ularning barchasi dunyoqarashi va hayot me’yorlari tushunchasi endi shakllantirayotgan yosh bolalar uchun ham ta’lim, ham tarbiya beruvchi asarlardir. Misol uchun, “O‘g‘irlangan quyosh” hikoyasini keltirish mumkin. Bu ertakda aytilishicha, quyosh o‘g‘irlanishi tufayli g‘oyib bo‘lgan nabiralari tufayli zulmatda yig‘lab o‘tirgan ayiq, aslida o‘zini past baholaganligi va o‘zini timsohni mag‘lub

¹¹ Xalilova D. “Bolalar adabiyoti va folklor” fanidan o‘quv metodik majmua, Toshkent, 2005. – 24 b.

¹² <https://pitzmann.ru/chukovsky.htm>

etishga qodir deb hisoblamaganligi uchun quyoning: “Bo‘ldi, bas yig‘lashni to‘xtat. Sen quyon emas, ayiqsan-ku....” – degan tanbehidan keyin, barcha hayvonlarning, shu jumladan nabiralarning ham xaloskoriga aylanadi. Haqiqiy hayotda bo‘lgani kabi, biz ko‘pincha o‘zimizni kuchsiz deb hisoblaymiz, aslida esa biz hayotimizning quruvchisimiz, bundan tashqari, hattoki kichik bir turtki biz uchun motivatsiya sifatida xizmat qilishi va barcha muammolarni hal qilishning kalitiga aylanishi mumkin. Asarni to‘g‘ri tahlil qilish uni har bir bola-o‘quvchi uchun kitob mutoolasini asosiy tarbiya unsuriga aylantiradi.

Madaniyatlararo tafovut muammolarini aniqlar ekanmiz, zamonaviy adabiyotda, shuningdek, mavjud tajribani umumlashtirish va tahlil qilish jarayonida olingan natijalarga asoslanib, biz tadqiqotimizda asosiy adabiyotlardan biri bo‘lgan ingliz bolalar adabiyotini alohida ta’kidlab o‘tishimiz lozim.

Birinchi navbatda, ingliz yozuvchisi J.Roulingning 1911 yilda yozilgan “Piter Pen” nomli asarini alohida aytib o‘tish kerak. Bu asarda ulg‘ayishni istamagan va Nebilyandiya mamlakatiga tushib qolgan hamda shu yerda uchishni o‘rgangan, unga o‘xshab ulg‘ayishni xohlamagan yosh bolalarning yetakchisiga aylangan va qaroqchilarga qarshi kurashgan bola haqida hikoya qilinadi. Deyarli barcha bolalar tezroq o‘shishni, qizlar onalariga, o‘g‘il bolalar dadalariga o‘xshashni xohlashadi. Ushbu asar esa bolaga bolalik, beparvolik va hayotning ajoyibligidan zavqlanishni o‘rgatadi. Ushbu asarda personajlar asosan oqsuyak oilalarning farzandlari bo‘lib, asar ko‘proq boy oilalar turmush tarziga bog‘langan. Ammo, afsuski, bolalar uchun mo‘ljallangan ko‘plab asarlar singari, bu asar dunyo bo‘ylab kitob sifatida emas, balki uning asosida suratga olingan film orqali mashxurdir. Aynan shu xolat bolalar adabiyoti tarjimasining jiddiy muammolaridan biridir, chunki ko‘pgina xorijiy bolalar asarlarining tarjimasini ayniqsa o‘zbek tilida mavjud emas. Shu munosabat bilan, hozirgi avlod bolalari ular haqida film tomosha qilish orqali bilishni afzal ko‘rishadi.

Bolalar uchun yaratilgan asarlarini taqqoslashda yana bir muhim madaniyatlardan biri bu o‘zbek madaniyati bo‘lib, u yanada xayotiy xarakterga ega va xayoliy sehrli qahramonlardan yiroqdir. Badiiy janrlar muhokamasidan yiroqlashgan holda shuni ta’kidlash kerakki, 1957 yilda yozilgan qattiq hayotning beshavqat sharoitlarida bolalarning zaxmatini o‘zida aks ettirgan G.G‘ulomning “Shumbola” qissasi madaniy o‘ziga xoslikni tahlil qilishda birinchi o‘rinda turadi. “Shumbola” bu – avtobiografik asardir. G.G‘ulom otasini erta yo‘qotgan. Kundalik non topishga intilib, ko‘plab sarguzashtlarni boshidan kechirgan. Muallif boshdan kechirgan va ko‘rganlarini badiiy to‘qimalar bilan boyitib, “shum”, ziyrak bolalar obrazlarini yaratdi, ular ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘lmay, bor kuchlarini foydali ishlarga qanday sarflashni bilmay, “odamlar qo‘lida” bir parcha non uchun ishladilar yoki bema’ni ishlarga qo‘shildilar¹³.

Shunday qilib, XX asr ingliz bolalar adabiyoti asarlarida aksariyat hollarda oq suyaklik bilan bog‘liq xususiyatlar ko‘zga tashlanadi, bu ularning madaniyatiga xos xususiyatdir. Rus adabiyoti asarlari esa ko‘p hollarda tarbiyaga bag‘ishlangan, ya’ni ularda muallif bolaga nimanidir o‘rgatib, unga nima to‘g‘riyu nima noto‘g‘ri

¹³ Камилова С.Э. Разработки практических занятий по узбекской литературе // Учебно-методическое пособие. Художественное своеобразие повести Гафура Гуляма «Озорник». – Ангрэн, 2009. – 54 с

ekanligini tushuntirishga harakat qiladi. O‘zbek adabiyotining ko‘pgina asarlarida esa hayotning haqqoniylik xususiyatlari tasvirlanadi. Xalq hayoti bilan chambarchas bog‘langan adabiyot uning o‘ziga xos an‘analari, psixologiyasi hamda turmush tarzini yaqqol aks ettiradi.

Birinchi bobning **“Zamonaviy tarjimashunoslikda bolalar badiiy matnining tarjimasini tahlil qilishda yondashuvlar”** deb nomlangan uchinchi faslida zamonaviy tarjimashunoslikning rivojlanish tendensiyalari borasidagi dissertatsiyamiz mavzusiga tegishli bo‘lgan ilmiy ishlarning umumiy tahlili keltirilgan.

Jahon tarjimashunosligida bolalar adabiyotini turli aspektlarda tarjima qilish muammolarini o‘rganishga alohida e‘tibor qaratilib, E.Kseni, V.Dukmak, A.Chelalga, H.Z.Huseyn, T.Reynbert, S.Berri, T.V.Gabriele kabi ko‘plab xorijiy ilmiy tadqiqotchilar ishlarida batafsil tadqiq etilgan.

Arab tadqiqotchisi V.Dukmakning dissertatsiyasi bolalar adabiyotini arab tiliga tarjima qilishda madaniy aspekt muammolariga bag‘ishlangan. Ushbu tadqiqotda quyidagi kategoriyalar ko‘rib chiqilgan: madaniy havolalar, ismlar va bolalar adabiyotini arab tiliga tarjima qilishda so‘z o‘yinlari. Ingliz yozuvchisi J.R.Roulingning mashhur Garri Potter to‘plamidagi uchta kitob “Harry Potter and the Philosopher’s Stone”, “Harry Potter and the Goblet of Fire”, “Harry Potter and the Half-Blood Prince”ning arabcha tarjimasini tahlil qilish asosida muallif o‘smir o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan fantastik roman kichik janrining o‘ziga xos jihatlari ko‘rib chiqadi.

Muallif arab dunyosining adabiy polisistemasida periferik pozitsiyani egallab turgan bolalar adabiyotini tadqiqot obyekti sifatida ko‘rib chiqadi. Muallifning fikriga ko‘ra, agar biz arab adabiyoti merosiga murojaat qilsak, uning asosan erkaklar tomonidan va erkaklar uchun yaratilganligini aniq ko‘rishimiz mumkin. Arab jamiyati ma‘lum darajada juda patriarxal bo‘lgan va shunday bo‘lib qolmoqda deydi muallif. Bunday holatda bolalar adabiyoti va uni tarjima muammolari e‘tibordan chetda qolib ketayotgani tahlil jarayonida ochib berilgan.

E‘tiborga loyiq bo‘lgan yana bir ilmiy ish A.S.Yorkinaga tegishli bo‘lib, u “Bolalar badiiy adabiyotini Otrid Proislerning “Die kleine hexe” (kichkina jodugar) ertagi misolida tarjima qilish muammolari” deb nomlangan.

Tadqiqotchi o‘z ishida shunday deydi: “Ko‘pincha bolalar adabiyotini tarjima qilishda tarjimon qahramonlarning nutqini tabiiy holga keltirish uchun yaxlit o‘zgartirishga va boshqa leksik transformatsiyalarga murojaat qiladi, bu matndagi dialoqlarning ustunligi va so‘zlashuv uslubiga xos iboralarni tez-tez ishlatish bilan bog‘liqdir. Bolalar adabiyotini tarjima qilishda yana bir o‘ziga xos xususiyat – bu qahramonlarning his-tuyg‘ularini yetkazish, shuningdek to‘g‘ridan-to‘g‘ri nutqni kiritishda takrorlanishlar bo‘lmasligi uchun konkretizatsiya yoki ekspressivitizatsiya usulidan foydalanishdir. Ekvivalentsiz leksikani tarjima qilish ham qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, ammo bolalar badiiy adabiyotida ushbu muammoni hal qilishning eng maqbul yo‘llarini topish qo‘shimcha izlanishlarni talab etadi, chunki ushbu asar

matnida tegishli xulosalar chiqarish uchun bunday holatlar yetarli emas”¹⁴ deydi muallif.

O‘zbek tilshunosligida olib borilgan ishlarga misol qilib G.A.Ostonovanning “Ming bir kecha” asarining o‘zbekcha tarjimalariga bag‘ishlangan tadqiqotini keltirish mumkin. Unda birinchi bor kompleks tadqiqot doirasida davr, uslub va tarjima aniqligi muammolari asarning fors tilidan o‘zbek tiliga tarjimasida tahlil qilingan.

Ingliz, rus va o‘zbek tillarida yaratilgan ishlar tahlilidan so‘ng, quyidagi xulosaga kelishimiz mumkin – lingvistik qiyinchiliklardan tashqari, ba’zi muammolar madaniyatlararo tafovut: matnda lingvistik vositalar yordamida yaratilgan olam manzarasining nomuvofiqligi tufayli yuzaga keladi. Matnni tarjima qilishda lug‘atda qayd etilgan lingvistik ekvivalentni tanlash faqat kontseptuallik va vaziyatlilik xususiyati bilan bog‘liqligini yodda tutish muhimdir.

“Bolalar adabiyotining ingliz tilidan rus va o‘zbek tillariga tarjimasining qiyosiy va chog‘ishtirma tahlili” nomli ikkinchi bobi to‘rtta fasldan iborat bo‘lib, bolalar badiiy adabiyotini tarjima qilishning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib beradi. Ushbu bobning obyekt sifatida ingliz yozuvchisi R.Dahlning “Charli va shokolad fabrikasi” asari va uning tarjimonlar M.Baron va E.Baron tomonidan bajarilgan ruscha tarjimasini, N.Zlotnikova tomonidan bajarilgan she‘rlar tarjimasini hamda asarning tarjimon G.Xoldorova tomonidan amalga oshirilgan o‘zbekcha tarjimasini tanlab olingan.

“Bolalar adabiyotini tarjima qilishning fonetik muammolari” nomli ikkinchi bobning birinchi faslida tahlil obyektlari sifatida atoqli otlar tanlangan bo‘lib, ular ko‘p hollarda transkripsiya usuli orqali tarjima qilingan, ammo talaffuzda farqlarga ega. Masalan, “*Janob Vonka va Hind shahzodasi*” deb nomlangan 3-chi qismda quyidagi transkripsiya ega - [pondi 'tʃeri] “*Pondicherry*” nomi uchraydi. Rus tilidagi tarjimada “tʃ” – “ч” o‘rniga fonetik xatoga yo‘l qo‘yilib “sh” tovushi ishlatilgan, natijada bu nom “Pondisher”ga aylandi. Bundan tashqari, bu yerda ikkita “r” harfidan foydalanish o‘rinli bo‘lar edi. O‘zbek tilidagi tarjimaga hech qanday e‘tiroz yo‘q, chunki “*Pondicherri*” – “*Pondicherry*”ning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalenti hisoblanadi.

Tadqiqot jarayonida ma‘lum bo‘lishicha, muallif “*The Secret Workers*” nomli 4-bobda Mr Prodnose nomini keltiradi, o‘zbek tilida tarjimon transkripsiyaning qilishda xatoga yo‘l qo‘ygan (Prodnessin). Ammo bu so‘z, yozuvchi ijodining samarasi bo‘lgan okkazionalizm ekanligini va aniq transkripsiya ega emasligi inobatga olgan xolda uni biz ingliz orfoepiyasi qoidalariga asoslanib quyidagi transkripsiya qildik: [prɒd nɔʊz]. Shunga asoslanib “Prodnessin” o‘rniga biz “Mister Prodnouz” tarjimasini taqdim etishimiz mumkin. Xuddi shu bobda “*Slugworth*” nomi keltirilgan bo‘lib, rus tiliga «*Слугворт*», o‘zbek tiliga “*Slugvorz*” deb tarjima qilingan. Ushbu so‘zning transkripsiyasi: [slʌg ‘wɜːθ], bo‘lgani sababli rus tilida «*Слагворс*» va o‘zbek tilida “*Slagvors*” shaklida bo‘lishi maqsadga muvofiq.

¹⁴ Еркина А.С. Проблемы перевода детской художественной литературы на примере повести-сказки Отфрида Пройслера “Die kleine hexe”: Выпускная квалификационная работа. – Владивосток, 2018. – 67 с.

“*The First Two Finders*” deb nomlangan 6-qismning tarjimasida professor “*Foulbody*”ning ismi xato yozilgan, chunki “ou” diftongi [ou] deb o‘qiladi. Baronlarning tarjimasida u «*Фаулбоду*», Xoldorovaning tarjimasida esa umuman “*Koulbodi*” tarzida berilgan. Bizningcha rus tilida «*Фоулбоду*», va o‘zbek tilida “*Foulbodi*” degan ekvivalentlarni tanlash to‘g‘ri bo‘ladi.

“*Two More Golden Tickets Found*” deb nomlangan bobda “*Beauregarde*” familiyasi mavjud bo‘lib, u bir nechta unli harflar jamlanmasi bilan ajralib turadi, ular birga yozilganda o‘ziga xos talaffuzga ega [bju:ri'gɑ:d], Baronlarning talqinidagi – «*Бьюригард*» talaffuzi rus tiliga juda mos keladi. Garchi Xoldorova grammatika va orfoepiya qoidalari nuqtai nazaridan “*Bearugarde*” tarjimasini tanlamagan bo‘lsa-da, transkripsiyaga asoslanib, biz “*Byurigard*” variantini taklif qilamiz.

G.Xoldorova tarjimasida “*Fudge Room*” nomli qandolat tayyorlaydigan xonaning tarjimasida kamchilikka yo‘l qo‘yilgan – tarjimon harflar tarkibini saqlab qolgan holda, quyidagi shaklni tanlaydi: “*Fudge xonasi*”. Baronlar tomonidan u «*Ирисковый цех*» deb tarjima qilingan. Ingliz tilini bilmaydigan bola-o‘quvchi uchun “fudge” nima ekanligi noma‘lum. Notanish so‘zni tarjima qilish uchun biz “*Cambridge*” lug‘atidan foydalandik, unda “fudge” atamasiga “a soft, sweet food made from butter, sugar and milk”, rus tilida «сливочная помадка»¹⁵ kabi tasvirlangan. Bundan kelib chiqib, Baronlar ham ushbu so‘zga mos kelmaydigan ekvivalentni tanladilar deb hisobladik. Biz rus tilida «*Помадковый цех*» variantni taklif qilamiz, o‘zbek tilida esa “fudge” so‘zining ekvivalenti bo‘lmaganligi uchun (“qaynatilgan shakar siropi, 35-40° haroratgacha sovutilgan va mikser yoki qo‘l bilan aralashtirilgan”¹⁶ ma’noga asoslanib) “*Kremlar tsexi*” iborasini tanladik, chunki bu variant asliyatda muallif aytmoqchi bo‘lgan taomga yaqin ma’no beradi.

Ikkinchi bobning “**Tarjima**dag**i leksik transformatsiyalar**” deb nomlangan ikkinchi faslida rus tilshunosi, rus tili grammatikasi va leksikasi bo‘yicha mutaxassis, professor S.G.Barxudarov tomonidan tuzilgan tarjima jarayonida amalga oshiriladigan transformatsiyalarning to‘rtida turi ko‘rib chiqiladi¹⁷, ya’ni:

1. almashtirishlar;
2. o‘zgartirishlar;
3. qo‘shimchalar;
4. tushirib qoldirishlar.

Mavjud tarjimalarni asliyat bilan taqqoslash jarayonida, o‘ttiz qismdan iborat bo‘lgan hikoyaning, ba’zi nomlari tarjimasida asliyatga mos kelmasligi aniqlandi. Masalan, 17-bobning “*August Gloop goes up the pipe*” sarlavxasi quyidagicha tarjima qilingan:

«*Август Глуп попадает в трубу*»
“*August Glop quvurga tushib ketdi*”

¹⁵ <https://dictionary.cambridge.org/ru/>

¹⁶ <https://kartaslov.ru/>

¹⁷ Бархударов Л.С. Язык и перевод (Вопросы общей и частной теории перевода) / Л.С. Бархударов. – М.: Международные отношения, 1975, с 68.

Yuqoridagilardan xulosa qilishimiz mumkinki, rus tilidagi tarjima asl nusxaga yaqin, o‘zbek tilida esa “quvurga tushib ketdi” iborasi “quvurning ichiga tushish” degan ma’noni anglatadi, bu “goes up the pipe” ga qarama-qarshi bo‘lib, ushbu noto‘g‘ri variantni “quvurdan yuqoriga ko‘tariladi” bilan almashtirish mumkin. Bundan tashqari, ushbu tarjimada zamonlar bir-biriga moslanmagan, chunki aslyatda “goes up” fe’li hozirgi noaniq zamonda, tarjimaning o‘zbek tilidagi versiyasida esa “tushib ketdi” fe’li o‘tgan zamonda berilgan. Bir qarashda, bu unchalik muhim ahamiyat kasb etmasada, hamma voqealarni kitobda yozilganidek qabul qiladigan yosh bola ushbu qismda sodir bo‘ladigan voqea haqida noto‘g‘ri tasavvurga ega bo‘lishini inobatga olishimiz kerak.

19-qism nomini yana bir misol sifatida ko‘rib chiqamiz: *“Everlasting Gopstoppers and hair toffee”*,

«Вечные леденцы и волосатые ириски»

“Abadiy gopstopperlar va soch iris qandlar”

O‘zbek tilidagi tarjimada tarjimon “gopstopper” so‘ziga nisbatan ma’nosini tushuntirmasdan transliteratsiya usulini qo‘llagan. Bunday holda, sahifaning pastki qismida havola orqali izohdan foydalanish o‘rinlidir, chunki bunday so‘zlarni boshqa madaniyat o‘quvchisi, ayniqsa bola-o‘quvchi uchun tushunish qiyindir.

“Along the corridor”, «Чудо коридор» deb nomlangan 22-qismni, «Вдоль коридора» deb tarjima qilish maqsadga muvofiq bo‘lar edi, o‘zbek tilida esa “corridor” so‘zi yo‘q, bu iborani *“Yo‘lak bo‘ylab”* bilan almashtirish mumkin.

“Square sweets that looks round”, nomli 23-qism bizning fikrimizcha, noto‘g‘ri, tarjima qilingan. Rus tilidagi tarjimada u quyidagi ko‘rishga ega: *«Улыбающиеся конфеты»*, aslida *«Квадратные конфеты, которые выглядят круглыми»* bo‘lishi lozim. Har bir tarjimonning maqsadi, birinchi navbatda, tarjimaga yangi g‘oyalarni qo‘shish emas, balki muallifning so‘zlarini yetkazishdir, chunki bu ma‘lum darajada muallif asarida aytishni niyat qilgan habar mohiyatini buzilishiga sabab bo‘ladi. Agar o‘zbek tilidagi tarjimini ko‘rib chiqsak: *“O‘girilib qaraydigan kvadrat qandlar”* – tarjimasi ham noto‘g‘ri. Tarjimonning asosiy xatosi shundaki, u “yumaloq ko‘rinadigan” degan ma’noni anglatuvchi “looks round” iborasining boshqa ma’nosini hisobga olmagan va “o‘girilib qaraydigan” ma’nosini afzal ko‘rgan. Ushbu turdagi tarjima xatosi, L.K.Latishevning so‘zlariga ko‘ra ma’noning buzilishi hisoblanadi. Quyidagi talqin shakli maqul deb topildi: *“Yumaloq bo‘lib tuyuladigan to‘rtburchak konfetlar.”*

Tarjimadagi yana bir nomuvofiqlik - *“The Great Glass Lift”* nomli 25-chi qismda uchraydi, rus tilida quyidagicha ko‘rinishga ega: *«Большой стеклянный лифтолёт»*. Ehtimol, “lift” o‘rniga «лифтолёт» so‘zini tanlab, tarjimon ushbu nomda ekspressivlikni kuchaytirmoqchi bo‘lgandir, chunki lift aslida ucha olmaydi. Aynan shu narsa o‘quvchini asarni tezroq o‘qishga undashi mumkin va bu har bir muallifning, ayni paytda esa tarjimonning eng asosiy maqsadlaridan biridir.

Tadqiqot jarayonida tarjimada rus va o‘zbek tilidagi bir qator transfotmatsiyalar bilan birga okkazonalizmlar ham topildi. Bunga quyidagi misolni keltirish mumkin:

“The grass you are standing on, my dear little ones, is made of a newkind of soft, minty sugar that I’ve just invented! I call it swudge!”

«Трава, на которой вы стоите, мои дорогие из недавно изобретённого мною вида мятного сахара! Я называю его “мяхар”».

Ushbu jumlada M. Baron va E. Baron tarjimonlari, R. Dahl okkazionalizmiga nisbatan leksik va grammatik transformatsiyani qoʻlladilar, chunki uning maʼnosini lugʻat yordamida tarjima qilib boʻlmaydi. Ular “swudge” soʻzini avvalgi “minty sugar” (yalpiz shakar) iborasi yordamida tarjima qildilar. Shunday qilib, matnda «мятный сахар» soʻzlarini qoʻshish natijasida, yaʼni kontaminatsiya usuli bilan «мяхар» - soʻzi paydo boʻldi.

Ushbu ibora oʻzbek tiliga “paxta qandlari” deb tarjima qilingan, garchi asliyat bilan semantik nomuvofiqlik mavjud boʻlsada, “shakar” soʻzi hali ham “qand” soʻzi bilan bogʻliq boʻlishi mumkin, ammo “minty” soʻzi aniq “yalpizli” degan tarjimaga ega. Ushbu iborani yalpiz tetiklantirish va sovutish xususiyatiga ega boʻlgani uchun, “yalpizli shakar” yoki “yaxtak shakar” deb talqin qilinsa toʻgʻri boʻlar edi. Biz ham bu yerda kontaminatsiya usulini qoʻllagan holda oʻz okkazionalizmimiz - “yaxkar” (yaxtak shakar)ni taklif qildik.

Ikkinchi bobning **“Tarjimadagi grammatik transformatsiyalar”** deb nomlangan uchinchi faslida grammatik transformatsiyalar (morfologik, sintaktik), shu jumladan: sintaktik oʻxshatish (soʻzma-soʻz tarjima); gapni ajratish; gapni birlashtirish; grammatik transformatsiyalar (soʻz shakllari, soʻz turkumlari, gap boʻlaklarini almashtirilish) va boshqalar koʻrib chiqiladi. Tadqiqot davomida biz “Charli va shokolad fabrikasi” asarining tarjimalarida koʻplab grammatik transformatsiyalar mavjudligini aniqladik. Masalan, *“Mayk Teavee is sent by Television”* deb nomlangan 27-chi qismda zamon bilan bogʻliq transformatsiyalar mavjud. “...is sent” – oʻzbek tiliga passiv shaklining hozirgi zamonidan “joʻnatildi” deb tarjima qilingan, bu yerda passiv shakli hozirgi zamondan oʻtgan zamonga oʻzgargan. Ushbu hikoyaning 2-chi qismidan olingan quyidagi murakkab jumlaning koʻrib chiqsak:

“And, by a most secret method, he can make lovely blue birds’ eggs with black spots on them, and when you put one of these in your mouth, it gradually gets smaller and smaller until suddenly there is nothing left except a tiny little pink sugary baby bird sitting on the tip of your tongue”.

Tarjimada Baronlar gapni qismlarga boʻlish usulidan foydalangan va shu bilan ushbu jarayonning natijasini koʻrsatgan:

«Но главный секрет мистера Вонки - чудесные, голубые в крапинку, птичьи яички. Когда кладешь такое яичко в рот, оно становится все меньше и меньше и в конце концов тает, а на кончике языка остается крохотный розовый птенчик».

Xoldorovanning tarjimasida ushbu qism quyidagicha berilgan:

“Maxfiy bir usul bilan qora nuqtalar qoʻyilgan, yoqimtoy koʻk qushlarning tuxumlaridan shunday shirinlik tayyorlaydiki, ularni ogʻzingizga solganingizda asta-sekinlik bilan kichrayib boradi va toʻsatdan tilingizning uchida kichkinagina pushti shakarli tuxumdan boshqa hech narsa qolmaydi”.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shunday xulosa qilishimiz mumkin:

birinchidan, “yoqimtoy koʻk qushlarning tuxumlaridan shirinlik tayyorlaydi” iborasi asliyatda “u ajoyib, koʻk dogʻli, qush tuxumchalarini tayyorlaydi” tarzida

berilgan. Ya'ni qush tuxumlaridan emas balki qush tuxumlariga o'xshash shirinliklar tayyorlanadi degan jumla berilgan;

ikkinchidan, o'zbek tiliga tarjimon G.Xoldorova jumlaning bir qismini "kichkinagina pushti shakarli tuxumdan boshqa hech narsa qolmaydi" deb tarjima qilgan, aslyatda esa u "kichkina pushti jo'ja qoladi" degan ma'noni bildiradi;

uchinchidan, ushbu transformatsiyalar retsipient tili matnini ekspressivlikdan mahrum qilishi mumkin. Ekspressivlik esa o'z navbatida o'quvchi-bolaning mo'jizaviy voqealarni anglashda muhim rol o'ynaydi va shu bilan birga unda asarni o'qishga istak uyg'otadi.

Asarning "Two More Golden Tickets Found" deb nomlangan bobida quyidagi gaplar mavjud:

Mike Teavee himself had no less than eighteen toy pistols of various sizes hanging from belts around his body, and every now and again he would leap up into the air and fire off half a dozen rounds from one or another of these weapons. "Quiet!" he shouted, when someone tried to ask him a question. "Didn't I tell you not to interrupt!"

Bu qismning rus tiliga tarjimasi jarayonida grammatik transformatsiya (gapning bo'linishi) qo'llanilgan bo'lsada, ma'no saqlanib qolingani, eksplikatsiya qo'llanilishiga qaramay gap to'g'ri shakllantirilgan.

Сам Майк Тиви был обвешан не менее чем восемнадцатью пистолетами разного калибра. Время от времени он вскакивал со стула и стрелял. Тихо! - закричал он, когда кто-то из корреспондентов хотел взять у него интервью. - Я сказал, не мешайте!

O'zbek tilidagi tarjimada esa eksplikatsiya bilan bir qatorda implikatsiya ham qo'llanilgan:


"9 yoshlardagi bola katta televizor qarshisida o'tirar, tinmay "Xalaqit bermang", deb baqirardi. Uning hammayog'iga g'alati buzg'unchi qurollar osilgan. Otadigan, sindiradigan juda g'alati qurollar. Kimdir unga savol berganda hatto jerkib tashladi".

Tarjimon "he would leap up into the air" jumlasini tashlab ketadi va aslyatda mavjud bo'lmagan "Otadigan, sindiradigan juda g'alati qurollar" jumlasini qo'shadi. Ushbu qismda asosiy xato shundaki, tarjimonlar Mayk Tivi haqiqiy to'pponchalar ga emas, garchi aslyatda "toy pistols" iborasi keltirilgan bo'lsada, o'yinchoq-to'pponchalarga ega degan asosiy g'oyani yetkazishmaganidadir. Bu xolat o'quvchi-bolada boshqa madaniyat haqida noto'g'ri taassurot uyg'otishi mumkin, unda hatto bola ham haqiqiy qurolga egadir degan fikr uyg'onishiga olib keladi.

"Tarjimaning stilistik muammolari" deb nomlangan to'rtinchi faslda asarning asosiy qahramonlaridan biri Villi Vonkaga tegishli g'ayrioddiy iboralarining tarjimadagi muammolari o'rganildi. Ushbu personaj – jamiyat va uning atrofidagi olamdan o'z-o'zini izolyatsiya qilish natijasida g'alati xatti-harakatlar belgilariga ega bo'lgan, mutlaqo g'ayrioddiy xarakterga ega shaxsdir. Bundan tashqari, muallifning individualligi va notiqligi ushbu qahramonning nutqlarida to'liq aks ettirilgan.

Ushbu asarning to'rtta maqsadli obyekt mavjud bo'lib, ular stilistik vositalar nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Biz tahlil qilgan iboralar va so'zlarning natijasida ushbu diagramma hosil bo'ldi.

2.1. - rasm. Guruhlar bo'yicha tahlil qilingan so'zlar va iboralar statistikasi¹⁸



Yuqoridagi diagrammaga asoslanib shuni ta'kidlash kerakki, ushbu paragrafda 17 ta shirinlik nomlari, 3 ta – yozuvchining o'zi ixtiro qilgan hayvon nomlari, 13 ta ism, shokolad fabrikasi bo'limlarining 8 ta nomi va ushbu asarning to'rtta salbiy qahramoniga bag'ishlangan 4 ta she'r tarjimalari tahlil qilingan.

Quyida Umpa-Lumpalar (Umpalandiyadan muallif tomonidan ixtiro qilingan turli xil hayvonlar tufayli doim xavf ostida bo'lganligi uchun qutqarilgan Villi Vonka fabrikasida ishlaydigan kichkina odamchalar) tomonidan kuylangan to'rtta she'rning tarjimalari taqqoslanadi. Ular itoatsiz va chidab bo'lmas darajada yo'mon hulqqa ega to'rtta bolaga bag'ishlangan: Avgust Glup, Veruka Solt, Violetta Byurgard va Mayk Tivi.

Avgust haqidagi she'r aslyatda 53 satrdan, rus tilidagi tarjimada 34 satrdan va o'zbek tilidagi tarjimada 22 satrdan iborat.

She'rlar tahlili shuni ko'rsatadiki, rus va o'zbek tillaridagi tarjimalarda implikasiya va eksplikatsiya usullari qo'llanilgan. Masalan: «*He знает назначение труб*», «*Лишь бы поестъ и на бочок*», «*Только не пугайтесь дети, не опасны игры эти*» iborolari aslyatda umuman yo'q, ular faqat qofiya uchun qo'llanilgan. Bundan tashqari, ma'no biroz o'zgartirilgan. Bu quyidagi iboralarda bayon etilgan:

*«Был обжора и урод,
Стал совсем наоборот!
Был как хвост у грязной киски,
А теперь - кусок ириски»*

¹⁸ Ushbu rasm muallif tomonidan tuzilgan.

Keltirilgan misolga asoslanib, tarjimon chidab bo‘lmas, ochko‘z bolaning taqdirini yengillashtirishga va unga o‘zgarish uchun yana bir imkoniyat berishga harakat qilgan degan xulosaga kelish mumkin. Aslyatda esa asar muallifi bu bolani to‘pga solib otib yubormoqchi bo‘ladi:

“Come on!” we cried.

“The time is ripe

To send him shooting up the pipe!

He has to go! It has to be!”

Xoldorovanning tarjimasida Avgust Glup nafaqat tarjimonning o‘zi, balki uni mag‘rurligi, tarbiyasizligi va juda katta ishtahasi uchun kechirishni istamaydigan o‘quvchining nafrat markazi sifatida tasvirlangan. Buni she‘rning o‘zbek tilidagi so‘nggi satrlarida kuzatish mumkin:

“Semizvoy! Xo‘p to‘lgansan,

Doim ochko‘z bo‘lgansan.

Mana senga bu jazo!

Ahvoling bo‘ldi rasvo!”

Keyingi she‘r uch yil davomida doimiy ravishda bitta saqichni chaynagan va onasini nazariga ilmagan, o‘ziga bino qo‘ygan, xudbin qiz – Violetta Byurgardga bag‘ishlangan. Unda jag‘ini chaynashdan to‘xtata olmaydigan, hatto tushida ham to‘xtamaydigan, nafaqat saqich, balki hamma narsani chaynashni boshlagan Miss Bigelou misol keltiriladi. U hattoki bir kuni tushida tilini shunchalik qattiq tishlaydiki tili ikkiga bo‘linib ketadi va u gung bo‘lib qoladi. Rus tilidagi tarjimada esa bunday deyilgan:


«Жуя во сне со страшной силой,

Язык себе перекусила.

Трагедия венчает дело –

Мисс Керр навеки онемела».

Zlotnikova ushbu personajga nisbatan Bigelov xonim o‘rniga Ker xonim deb nom berishni afzal ko‘rgan bo‘lsa, Xoldorovanning tarjimasida bu qahramon umuman yo‘q, faqat qizning o‘ziga va unga nima bo‘lganligi haqida murojaat bor. Ushbu holat tarjimada maqbul emas, chunki she‘rning butun mohiyati o‘zgarib bola-o‘quvchiga to‘g‘ri yetkazilmasligi va bolada umuman qahramon haqida noto‘g‘ri taassurot paydo bo‘lishi mumkin.



2.2. - rasm. Ikkinchi bobda muhokama qilingan tarjima muammolari statistikasi¹⁹

Ushbu diagrammadan xulosa qilishimiz mumkinki, mazkur bobda leksik transformatsiyalarning 19 ta, stilistik muammolarning 14 ta, fonetik muammolarning 13 ta, grammatik transformatsiyalarning 7 ta misoli ko‘rib chiqilgan.

“Bolalar badiiy adabiyotini ingliz tilidan o‘zbek tiliga bevosita tarjima qilish xususiyatlari (“Matilda” asarini o‘zbek tiliga tarjima tahlili misolida)” nomli uchinchi bob adekvat tarjimaning ahamiyatini ochib beradi va muallif nutqining mohiyatini yetkazish jarayonida tarjimaning muammolari va qiyinchiliklarini muhokama qiladi. Tarjimon adekvat tarjimini yaratishda quyidagi vazifalarni o‘z oldiga qo‘yadi: 1) matnni leksik jixatdan moslashtirish, tarjima tilida asliyat tilining ekvivalentsiz leksikasini qayta yaratish; 2) asarning ko‘ngilocharlik funksiyasini saqlab qolish; 3) asarning tarbiyaviy vazifasini saqlab qolish²⁰.

Uchinchi bobning **“Bolalar adabiyotini adekvat tarjima qilish uchun maxsus tarjima usullarini tanlash”** nomli birinchi faslida eng asosiy tamoyil sifatida nemis ilohiyotchisi va faylasufi F.Shleyermaxer tomonidan ishlab chiqilgan retsipientning matn ma’nosini adekvat talqin qilish imkoniyatini o‘zida aks ettiruvchi muallifning va retsipientning kongeniiallik tamoili tanlab olingan. Ushbu tamoilda aytilishicha, muallif va o‘quvchi o‘rtasida joylashgan matn obyektiv ravishda anglanishi mumkin, bu anglanish adekvat bo‘lishi uchun muallif va o‘quvchi ijodining tengligi asos bo‘lib xizmat qiladi²¹.

¹⁹ Ushbu diagramma muallif tomonidan tuzilgan.

²⁰ Федотова О.В., Кузьмичева Е.Г. Особенности прагматической адаптации при переводе литературной сказки (на примере переводов сказки Р. Даля “Чарли и шоколадная фабрика”) // Вестник РГГУ. Серия «Психология. Педагогика. Образование». 2018. №3 (13), С.122.

²¹ Шлейермахер Ф. Герменевтика: перевод с немецкого А.Л.Вольского, СПб.: Европейский дом. 2004. – 242 с.

R.Joubning soʻzlariga koʻra: “tarjimonlar uchun eng qiyin vazifalardan biri bu – bolalar adabiyotini tarjima qilishdir”²². Uning fikriga koʻra, tarjimon soʻzma-soʻz yoki erkin tarjimini tanlashi; soʻz uchun soʻz yoki maʼno uchun maʼno berish va shu orqali matn maqomini saqlash dilemmalariga duch keladi. U yoki bu tarjima usulini tanlashda tarjimon quyidagi muammolarga duch kelishi mumkin: hayotiylikni yoʻqotishiga olib kelishi yoki tarjimini oʻqishni qiyinlashtirishi mumkin boʻlgan asl matnga haddan tashqari yaqinlik (soʻzma-soʻzlik), boshqa tomondan, matnning ajralmas qismi deb hisoblangan, muallif gʻoyasining elementlarni olib tashlash muammosidir. Bundan tashqari, moslashtirish (adaptatsiya) tarjima qilishning eng aktual usullaridan biri boʻlsa-da, tarjima qilingan matnni oʻqish jarayonini qiyinlashtirishga olib keluvchi hikoyani haddan tashqari soddalashtirish muammosi ham mavjud.

Uchinchi bobning “**«Matilda» asarini oʻzbek tiliga tarjima qilishning amaliy natijalari**” nomli ikkinchi faslida obyekt sifatida ingliz yozuvchisi R.Dahl tomonidan yozilgan, 1988 yilda Djoneten Keyp tomonidan Londonda 232 sahifada, Kventin Bleyk illustratsiyalari bilan chop etilgan “Matilda” qissasi tanlab olindi. Ushbu asar 21 bobdan iborat boʻlib, ularning har biri oʻziga xos tuzilishi va mazmuni bilan ajralib turadi. Tarjima jarayonida oʻxshatish shaklida ishlatilgan juda koʻp sonli hasharot nomlari topildi. Masalan, “The reader of books” deb nomlangan asarning birinchi qismida “periodical cicada” – «периодическая цикада» iborasi berilgan boʻlib, (bu hasharot “oʻn yetti yoshli chigirtka” nomi bilan ham tanilgan) oʻzbek tiliga “tengqanotli jizzildoq” deb tarjima qilingan. Bu yerda muallif baʼzi qobilyatsiz oʻquvchilarni ushbu hasharot bilan taqqoslaydi, chunki u 6 yilni yer ostida gʻumbak shaklida oʻtqazadi va 6 kundan ortiq boʻlmagan vaqt davomida erkin qanotli hasharot sifatida yashaydi. Buni muallif quyidagicha izohlaydi: “*The periodical cicada spends six years as a grub underground. Your son Wilfred has spent six years as a grub in this school and we are still waiting for him to emerge from the chrysalis*”, ruscha tarjimada – «Периодическая цикада проводит шесть лет в качестве личинки под землей. Ваш сын Уилфред шесть лет протомился в нашей школе в виде личинки, а мы всё ждём не дожждёмся, когда же он, наконец, выйдет из своей куколки и примется вольно порхать». Oʻzbek tiliga tarjima qilinganida, biz «личинка», soʻziga ekvivalentni tanlash maqsadida izlanishlar olib bordik va “gʻumbak” soʻzini tanladik hamda quyidagi variantni taklif qildik: “*Tengqanotli jizzildoq gʻumbak sifatida yer ostida 6 yilini sarflaydi va atigi 6 kunini quyosh va xavoda oʻtqazadi. Sizning oʻgʻlingiz Vilfred 6 yilini gʻumbak sifatida maktabda oʻtqazdi, biz hozirgacha uni qobigʻidan yorib chiqishini va oʻzi parvoz qilishini kutmoqdamiz*”.

Asarda “Mr”, “Mrs”, “Miss” kabi murojaat turlaridan foydalanilgan. Tarjima jarayonining dastlabki bosqichida biz soʻzma-soʻz tarjimadan, yaʼni “Janob”, “Xonim” kabilardan foydalandik. Ammo keyingi tarjimalar natijasida maʼlum boʻldiki, bu yerda transkripsiya usuli qoʻl keladi, chunki hozirgi avlod bolalari bu soʻzlarni toʻlaqonli tushunishga qodir. Bolalar ingliz tilini boshlangʻich sinfdan

²² Jobe R. Translation. In: HUNT, P. (Ed.). International companion encyclopedia of children’s literature. New York: Routledge, 1996. p. 529.

boshlab, ba'zan hatto maktab yoshidan oldin ham o'rganishadi. Muhimi esa bu usul ma'lum darajada chet el madaniyatini singdirishga yordam beradi va shu bilan bola-o'quvchining ma'lumotga bo'lgan ehtiyojini qondiradi. Shu munosabat bilan tarjimada quyidagi "Mister", "Missiz" va "Miss" leksik birliklaridan foydalandik.

Shuni ta'kidlash kerakki, muallif salbiy xarakterga ega bo'lmagan, ammo ekspressivlik va qahramonlarning his-tuyg'ularini batafsil yetkazish funksiyasini bajaradigan juda ko'p miqdordagi la'natlash ma'nosidagi iboralardan foydalanadi.

Masalan, "The Hat and the Superglue" deb nomlangan qismda quyidagi ibora ishlatilgan: "What in heaven's name are you talking about, you stupid witch", rus tilida «О чём ты чёрт возьми, говоришь, глупая ведьма?» degan ma'noni anglatadi. O'zbek madaniyatida «чёрт» ya'ni "shayton" so'zidan foydalanish, ayniqsa, bola-o'quvchi uchun mos emasligi sababli, biz bu jumlaning "Xudo haqqi, nima haqida gapirayotganingni bilasanmi?" deb tarjima qildik.

Xuddi shu bobda "Just keep your nasty mouth shut" iborasi so'zma-so'z «Держи свой ужасный рот закрытым», deb rus tiliga tarjima qilingan, o'zbek tilida esa quyidagi variantni taklif qilganmiz: "Yoqimsiz ovozingni o'chir".

"Ghost" deb nomlangan qissaning to'rtinchi bobida "Heaven help us" jumlasini o'zbek tilida "osmon bizga yordam ber" degan ma'noni anglatadi. Ammo bizning madaniyatimizda osmondan hech narsa so'ralmaganligi ko'proq Ollohga murojaat qilingani uchun "Ollohim bizga yordam bergin" tarjimasini tanladik.

Asarni o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida so'zma-so'z tarjima qilinsa tushunmovchiliklarga, almashtirish usulidan foydalanilsa esa adekvatlikni yo'qotilishiga olib keladigan iboralar ham uchraydi. Asarning "Parents" deb nomlangan bobida "I'm not in favor of bluestocking girls" degan jumla bor, bu jumla so'zma-so'z tarjima qilinganda "men ko'k paypoqli qizlarning tarafdori emasman" degan ma'no anglashiladi. Aslida, "bluestocking" iborasi dastlab Angliyada XVIII asrda tanqidchi, "blyuz malikasi" – Elizabet Montagyu (1718-1800) boshchilik qilgan ko'k paypoqlar jamiyatining a'zosi bo'lgan bilimli intellektual ayolga nisbatan ishlatilgan iboradir. XVIII asrning oxiriga qadar bu ibora har ikki jinsdagi olimlarga nisbatan ishlatilgan. Keyinchalik asosan intellektual ayollarga nisbatan qo'llanilgan²³. Shu munosabat bilan, yosh bola bo'lgan o'quvchiga ushbu ma'lumotni yetkazish tarjimon uchun qiyinchilik tug'diradi. Havolada izoh berish usulidan foydalanilsa esa, o'quvchilarning hammasi ham bunga e'tibor bermaydi va ushbu ma'lumotni o'qishni zarur deb hisoblamaydi. Shuning uchun bu vaziyatda "tushirib qoldirish" usulini qo'llashga qaror qildik.

Asarni tarjima qilishda yana bir qiyin vaziyatlardan biri bu besh satirdan iborat ingliz nasriy janri bo'lgan – limerikni tarjimasini hisoblanadi²⁴:

*"An epicure dining at Crewe
Found a rather large mouse in his stew.
Cried the waiter, Don't shout
And wave it about
Or the rest will be wanting one too."*

²³ <https://en.wikipedia.org/wiki/Bluestocking>

²⁴ <https://literarydevices.net/limerick/>


Ruscha tarjimada A. Biryukov quyidagi variantni tanlaydi:

*Гурман, обедавший в Пицце,
Достал мышонка из пиццы.
Крикнул повар: «О боже!
И все прочие тоже
Захотят таким насладиться!»*

Garchi “ekipaj” so‘zi kema ekipajini anglatsa-da tarjimon joy nomini Nitsaga almashtirgan.

*Ekipajda ovqatlatib o‘trib Epikyur
Ovqatidan sichqon topibdi
Oshpaz esa unga qarab elanib boshlar: “Boshqalarga aytma,
Xech, zinxor, bizga ham bergin deb aytishar shu on!”*

Tadqiqotimiz natijasida “epicure” so‘zi rus tiliga «гурман» deb tarjima qilinishi aniqlandi, garchi o‘zbek tilida uning ekvivalenti bo‘lmasa-da biz “nozik tab” yoki “xo‘rranda” kabi so‘zlarni tanlashimiz mumkin. Shunga qaramay, biz transliteratsiya nomli leksik transformatsiyani qo‘llab, bu so‘zni “epikyur” deb tarjima qildik. Bu so‘zning ma‘nosi bilan o‘quvchi tanish bo‘lmasligi mumkin, shu sababli, biz izoh berish usulini taklif qilishimiz mumkin edi. Ammo ushbu epizodning davomida asosiy qahramonlardan biri aynan shu so‘zga ta‘rif beradi. Shuning uchun bu vaziyatda “epikyur” atamasidan foydalanish o‘quvchiga so‘z boyligini boyitishga yordam beradi.




3.1. - rasm. Tahlil qilingan iboralar va so‘zlarni guruhlash va ularning statistikasi ²⁵

²⁵ Ushbu diagramma muallif tomonidan tuzilgan.

Yuqoridagi diagrammaga ko‘ra, ushbu bobning ikkinchi paragrafida biz 3 ta murojaatni, 7 ta hasharot nomini va 3 ta dermatozlar nomini o‘rganib chiqdik, ular asarning salbiy qahramoni direktor Tranchbul tomonidan la‘natlar shaklida ishlatilgan, ularning umumiy soni esa - 16 tani tashkil etadi. Bundan tashqari, “qichqirmoq” degan ma‘noni anglatuvchi “shout” so‘zining 4 ta o‘xshashish va 8 ta sinonimi rus va o‘zbek tillaridagi tarjimalari bilan tahlil qilingan.

Uchinchi bobning “«Matilda» hikoyasida quvonch, g‘azab va qo‘rquv kategoriyalarining tarjimalarini taqqoslash” nomli uchinchi faslida hissiyotlarning uchta kategoriyasi tahlil qilingan: bular quvonch, g‘azab va qo‘rquvdir. Ular stilistikaning bir qismi bo‘lgan qahramonlardagi emotsionallikni ifoda etganligi sababli, tarjimon uchun ba‘zi qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Biz ularni tasniflashning quyidagi sxemasini taklif qilamiz:



3.4. – rasm.

“Matilda” qissasidagi hissiyotlar kategoriyasi tasnifi ²⁶

Bu qismda vazifamiz o‘zbek tilida ushbu kategoriyalarni ifodalovchi so‘z va iboralar tarjimalarining adekvatligini o‘rganish bo‘lganligi sababli, asarning Aleksey Biryukovning bajargan ruscha tarjimasidan misollar keltiramiz. Dastlab, qissaning “The third miracle” nomli qismida quvonch kategoriyasidan boshlab quyidagilarni tahlil qilishimiz mumkin: ...hamma, shu jumladan maktab o‘qituvchilari Miss Trunchbuldan qutilganliklaridan juda xursand bo‘lishdi va Miss Haniga ushbu so‘zlar bilan minnatdorchilik bildirishdi: “*By golly, somebody’s floored her at last! Congratulations, Miss Honey!*”. Jumla rus va o‘zbek tillariga so‘zma-so‘z tarjima qilingan, ya‘ni Biryukov buni quyidagicha tarjima qilgan: «*Господи, наконец-то её уложили! Мои поздравления, мисс Хани!*». Asliyatda ushbu ibora “kimdir uni yotqizgan” shaklida berilgan, ammo biz o‘zbek tilida ushbu iborani emotsionalligini oshirish uchun quyudagicha tarjima qildik: “*Ey Xudo, nahotki siz uni qulatdingiz! Tabriklayman Miss Hani*”.

Keyingi, tahlil qilingan hissiyotlar kategoriyasi bu – g‘azabdir.

²⁶ Ushbu rasm muallif tomonidan tuzilgan.

Asarning asosiy qahramoni Matilda boshidan oxirigacha otasini boshqa odamlarga qilgan xatti-harakatlari va firibgarliklari uchun yomon ko‘radi, chunki u odamlarni aldaydi va buzilgan mashinalarni katta pulga sotadi, u quyidagi parchada o‘z noroziligi va g‘azabini bildiradi:

“It’s dirty money”, “I hate it”.

«Это грязные деньги! Я ненавижу их!»

“Bu xarom pullar. Men ulardanman nafratlanaman”.

“Dirty” sifatiga nisbatan biz leksik-semantik transformatsiyadan foydalanamiz. Bu so‘z o‘zbek tiliga “kir” deb tarjima qilinadi, lekin ma‘nosi va qahramonning nohaq topilgan pulga bo‘lgan munosabati tufayli “xarom” so‘zini tanlash ma‘qul bo‘ladi, bu holda u o‘zbek tiliga to‘g‘ri moslashtiriladi.

Roald Dahlning “Matilda” qissasida qo‘rquv hissi ko‘pincha leksik birliklar orqali ifodalanadi. Bu, ehtimol, qahramonlar boshdan kechirgan qo‘rquv hissi hikoyachi orqali ifodalanganligi bilan bog‘liqdir. Qahramonlarning qo‘rquvini ifodalovchi leksik birliklarni ikki guruhga ajratdik:

1) qo‘rquv tuyg‘usini tavsiflovchi so‘zlar va iboralar;

2) rang va yuz ifodalarining o‘zgarishini tavsiflovchi so‘zlar va iboralar.

Ushbu guruh asar qahramonlarida qo‘rquvning namoyon bo‘lish shakllariga ko‘ra ikkita kichik guruhga bo‘lingan:

- jismoniy harakat (shu jumladan qo‘rquv tufayli inson tanasining beixtiyor reaksiyalari);

- harakatsizlik (falaj bo‘lib qolish).

Qo‘rquvni ifoda etish shakli sifatida jismoniy harakatlar “Ghost” bobining epizodlarida namoyon bo‘ladi, unda Matilda ota-onasini qo‘rqitishga qaror qiladi:

- *The mother shrieked, still quaking.*

- *Взвизгнула мать, всё ещё дрожа.*

- *Qichqirdi onasi hamon titragancha.*

Ota-onasiga dars berishga qaror qilgan Matildaning ishlariga bag‘ishlangan “Ghost” bobida ko‘plab iboralar qizning ota-onasi his qilgan qo‘rquv hissini tasvirlaydi. Qiz gapiradigan to‘tiqushni quvirga yashiradi va ota-onasiga xonada arvoq paydo bo‘lganini aytadi. Quyidagi iboralar Matildaning ota-onasining munosabatini aks ettiradi:

- *His face had turned grey.*

- *Его лицо стало серым.*

- *Uning yuzi bo‘zarib ketdi.*

O‘zbekcha tarjimamizda “turned grey”, iborasi o‘rniga “bo‘zarib ketdi” ni tanladik, chunki turkiy tilda “bo‘z” so‘zi “kulrang” degan ma‘noni anglatadi.

Qahramonlarning his-tuyg‘ularini quvonch, g‘azab va qo‘rquvga guruhlash orqali emotsionallikni to‘g‘ri yetkazish har bir tarjimonning muhim vazifalaridan biri ekanligi isbotlandi, chunki tarjimada leksik, grammatik va hatto orfoepik transformatsiyalar qo‘l kelishi mumkin, lekin stilistik transformatsiya tarjima matni mohiyatining buzilishiga olib keladi. Shuni ta‘kidlash kerakki, emotsionallik stilistikaning obyektlaridan biri hisoblanadi.

XULOSA

Bolalar badiiy adabiyotini ingliz, rus va o‘zbek tillarida tarjima qilish muammolarini chuqur qiyosiy, chog‘ishtirma, leksik-semantik, grammatik, stilistik, kontekstual statistik hamda madaniyatlararo tafovut jihatidan tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalar olindi:

1. “Bolalar badiiy adabiyoti” tushunchasini chuqur o‘rganish bilan tadqiqotning nazariy asoslarini aniqlash orqali uning turli til va madaniyatlarda o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi, ya’ni ingliz adabiyotida individualizm va aristokratiyaning aks etishi, rus adabiyotida axloqiy vazifaning ustunligi hamda o‘zbek adabiyotida insonlarning real hayoti va ularning turmush tarzi aks etishi aniqlandi.

2. Tanlangan mavzu bo‘yicha ko‘rib chiqilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili tarjima bilan bog‘liq quyidagi muammolar mavjudligini ko‘rsatdi: turli xil retsepsiya va adaptatsiya jarayonlari, leksik transformatsiyalar, tarjima ekvivalentligi, frazeologik birliklarni tarjima qilish, tarjimonning ijodiy yondashuvi, realiyalarni, xorijiy ismlar, urf-odatlarini tarjima qilish, muallif uslubini qayta yaratish muammosi, tarjimonning shaxsiy tajribasi, uning mahorati va dunyoqarashi. Ammo tarjima muammolarini aniqlash maqsadida ingliz bolalar adabiyoti na‘munalari ularning mavjud ruscha va o‘zbekcha tarjimalari asosida qiyosiy-chog‘ishtirma jihatdan ko‘rib chiqilmagan.

3. Transkripsiya tarjimadagi fonetik muammolarni hal qilish uchun faqat potentsial transformatsiya turi sifatida maydonga chiqadi, transformatsiyalarning aksaryati atoqli otlarda uchraydi. Tarjimon oldida qahramonlarning ismlarini ularning fe‘l-atvori bilan to‘g‘ri assotsiatsiya qilish kabi jiddiy vazifa turadi. Madaniy moslashtirish esa ushbu muammoning yechimi ekanligi tadqiqotda aniqlandi.

4. Leksik va grammatik transformatsiyalarni o‘rganishda, Roald Dahlning “Charli va shokolad fabrikasi” asarining ruscha va o‘zbekcha tarjimalari asosida, tarjima muammolarini hal qilish uchun asosan 3 ta eksplikatsiya, 4 ta implikatsiya, 3 ta transliteratsiya, 2 ta generalizatsiya, 3 ta birlashma va 4 ta jummlarni bo‘lish, 6 ta leksik va 5 ta grammatik almashtirishlardan foydalanilganligi aniqlandi. Shunga asoslanib, tarjimaning zaruriy sharti bo‘lgan madaniy moslashtirish maqsadida aksariyat hollarda tarjimonlar leksik almashtirishlardan foydalanilganligini ochib berildi. Shuningdek, leksik tarjima muammolaridan biri bo‘lgan okkazonalizmlarning ba‘zilarini semantik tuzilishini hisobga olgan holda kontaminatsiya usuli orqali tarjima qilinish mumkin. Tarjimada implikatsiya eng ko‘p ishlatilgan leksik va grammatik transformatsiya turidir. Bunga sabab boshqa madaniyatning bola-o‘quvchisi ba‘zi atamalarni tushunishga qodir bo‘lmaganligi uchun adekvat tarjima sifatida implikatsiya ko‘proq ishlatilgan. Buning asosida madaniyatlararo tafovutlar hamda chet el madaniyati va tarixining qonuniyatlariga bo‘lgan munosabat yotadi.

5. Roald Dahlning “Charli va shokolad fabrikasi” asari tarjimalaridagi stilistik muammolarni tahlil qilish jarayonida ular quyidagi nisbatlarda tavsiflandi: 38% shirinliklar nomlarida, 9% zoonimlarda, 18% shokolad fabrikasi tsexlari nomlarida, 29% atoqli ismlarda va 6% she‘rlarda. Bundan kelib chiqadiki, ularning aksariyati

shirinliklar nomlarida uchraydi, chunki asarning mazmuni shirinliklar nomlari bilan chambarchas bog‘liq.

6. Roald Dahlning “Charli va shokolad fabrikasi” asari tarjimalari misolida bolalar badiiy adabiyotini tarjima qilish muammolarini qiyosiy-chog‘ishtirma tahliliga ko‘ra, 26% stilistik, 25% fonetik, 36% leksik va 13% grammatik muammolar aniqlandi. Shunga asoslanib, tarjima jarayonida leksik muammolar ko‘proq uchraydi degan xulosaga kelishimiz mumkin.

7. Tarjimada almashtirish usuli ko‘pincha transformatsiya sifatida qo‘llaniladi, ammo umuman olganda tarjima transformatsiyalari retsipient-tili mazmuniga maksimal darajada mos keluvchi tarjimani qayta yaratish uchun kompleks ravishda birga ishlatiladi. Ba‘zan tarjima asl nusxada mavjud bo‘lgan obrazlilik va ifodani saqlab qololmaydi, ammo boshqa hollarda tarjima asl matndan ustun bo‘lishi ham mumkin. Tadqiqotda ko‘rib chiqilgan holatlar qahramonlarning psixologik xususiyatlari va harakatlarini tarjima qilishning murakkabligini aks ettiradi. Shuning uchun tarjimada ushbu masalani o‘rganish tarjimonning adekvat tarjima qilish qobiliyatini rivojlantirish uchun muhim yo‘nalishdir.

8. “Matilda” asarini o‘zbek tiliga tarjima qilishning amaliy natijalari shuni ko‘rsatdiki biz tahlil qilgan 3 ta murojaat, va obsent leksika sifatida ishlatilgan 7 ta hasharot nomi, 3 ta dermatoz nomi, 6 ta lan’atlash iboralari, 4 ta o‘xshatish va “shout” so‘zining 7 ta sinonimlari tarjima muammolari sifatida aniqlandi va ushbu muammolarning yechimi sifatida bola-o‘quvchining yoshi, kognitiv tajribasi, madaniy moslashuvini hisobga olgan holda adekvat tarjima qo‘llanildi.

9. “Matilda” asarida uchraydigan his-tuyg‘ularni “quvonch”, “g‘azab” va “qo‘rquv”ga tasniflash ushbu emotsiyalar qahramonlar nutqida, qahramonlarning harakatlarini ifodalovchi iboralarda va emotsiyalar bilan bog‘liq yuz ranglarining o‘zgarishlarida namoyon bo‘lishi aniqlandi. Shuni ta‘kidlash kerakki, his-tuyg‘ularni noto‘g‘ri tarjima qilish ekspressivlikning yo‘qolishiga hamda muallif uslubining buzilishiga, bu esa o‘z navbatida fikrning noto‘g‘ri talqin qilinishiga olib keladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ № PhD 03/31.03.2021. Fil.78.04 ПРИ
ТЕРМЕЗСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

ТЕРМЕЗСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

АЛИБОЕВА НИГИНА АЛИШЕР КИЗИ

**ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА ДЕТСКОЙ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ
ЛИТЕРАТУРЫ (НА ОСНОВЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ РОАЛЬДА ДАЛЯ)**

**10. 00. 06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительное
языкознание и переводоведение**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ
на соискание ученой степени доктора философии (PhD)**

Термез – 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан В2021.1.PhD/Fil1603

Диссертация доктора философии (PhD) выполнена в Термезском государственном университете.

Автореферат диссертации выполнен на трех языках (узбекский, английский, русский) размещён на веб-странице Научного совета адресу www.tersu.uz и на информационно-образовательном портале "ZiyoNET" (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: Хошимхужаева Мохирух Музаффаровна
доктор философии по филологическим наукам (PhD), доцент

Официальные оппоненты: Мирсанов Гайбулло Кулмуродович
доктор филологических наук (DSc), доцент
Арустамян Яна Юрьевна
доктор филологических наук (DSc), доцент


Ведущая организация: Ургенчский Государственный Университет


Предоставление ученых степеней в рамках защиты диссертации состоится в 10:00 часов «31» март 2023 года на заседании научного совета PhD 03/31.03.2021. Fil.78.04 при Термезском государственном университете (Адрес: 190111, город Термиз., улица Баркамол авлод, 43. Тел.: (376) 221-71-17; e-mail: termizdu@umail.uz.)

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Термезского государственного университета (зарегистрирована под номером 163). Адрес: 190111, город Термиз, улица Баркамол авлод, 43. Тел.: (376) 221-74-55

Автореферат диссертации разослан «25» март 2023 года (реестр протокола рассылки № 31 от «25» март 2023 года).




Б. Умуркулов
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней докторов филологических наук, профессор


А.А. Эшмунинов
Секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор наук (Dsc), доцент


П.У. Бакиров
Председатель научного семинара при Научном Совете по присуждению ученых степеней, д.ф.ф., профессор

ВВЕДЕНИЕ

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировом переводоведении перевод детской художественной литературы представляет собой сложную и многоаспектную интеллектуальную деятельность, в частности, проблемы перевода детской художественной литературы, связанные с разными свойствами лексики, грамматики, стилистики и фонетики. В связи с этим исследование проблем перевода детской художественной литературы, а также сравнительно-сопоставительное изучение существующих переводов английской детской литературы приобретает большую актуальность.

В настоящее время в мировой лингвистике проводятся исследования в таких приоритетных направлениях как выявление лексических, грамматических, фонетических, стилистических трансформаций в переводах и интерпретациях, встречающихся в детской литературе, а также сопоставление переводов в аспекте межкультурного различия и многие другие. В большинстве этих исследований делается упор на анализ перевода лексических единиц (реалий, имён персонажей, топонимов, зоонимов, жаргонной лексики, названий кондитерских изделий) для выявления адекватности и корректности перевода.

В узбекском языкознании проводилось достаточное количество исследований в этой сфере. Но основное количество исследований посвящено особенностям перевода узбекских произведений на другие языки. Данный фактор усиливает значение исследований, связанных с проблемами перевода зарубежных произведений на узбекский язык, так как результат подобных работ непосредственно влияет на качество перевода. Как известно адекватный перевод и правильное восприятие напрямую влияет на формирование ребёнка-читателя как личности. К тому же многие произведения современной зарубежной детской литературы не переведены на узбекский язык, а существующие переводы были осуществлены посредством русского языка на узбекский. Это, в свою очередь, усиливает значимость всестороннего изучения особенностей перевода детской художественной литературы. Иновационность данного исследования определяется тем, что комплексный сравнительно-сопоставительный анализ перевода английских детских произведений с точки зрения грамматических, лексических, фонетических, и стилистических трансформаций до сих пор не стал предметом специального изучения.

Настоящее диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-4947 от 7 февраля 2017 г. «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», № УП-5106 от 05.07.2017 г. «О мерах по повышению эффективности государственной молодёжной политики и поддержке деятельности союза молодёжи Узбекистана». В постановлении Президента Республики Узбекистан № ПП-3271 от 13 сентября 2017 г. «О программе комплексных мер по развитию системы издания и распространения книжной продукции, повышению культуры чтения», в постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан № 781 от 14 декабря 2020 г. «Об утверждении Национальной программы развития и поддержки культуры чтения на 2020-2025 годы», в Законе Республики Узбекистан № ЗРУ-576 от 29 октября

2019 г. «О науке и научной деятельности», в постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан № 376 от 18 мая 2018 г. «О мерах по совершенствованию системы издания и перевода лучших примеров мировой литературы на узбекский язык, а шедевры узбекской литературы на иностранные языки», а также и в других нормативно-правовых документах, принятых в данной сфере.

Связь исследования с приоритетными направлениями развития науки и технологий Республики. Данное диссертационное исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и техники Республики Узбекистан I. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации по социальному, правовому, экономическому, культурному, духовно-просветительскому развитию информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы.

В мировом переводоведении в научных работах Р.Джоуб, А.П.Кови, Дж.Бейкера, Г.Р.Гачечеладзе, В.Н.Комиссарова, В.Г.Гака, К.И.Чуковского, Л.С.Бархударова, Л.К.Латышева, Я.И.Рецкера, Н.К.Гарбовского, В.С.Виноградова, А.В.Федорова²⁷ в узбекском переводоведении Г.Саломова, Дж.Шарипова, Г.Рахимова, Ф.Саидова²⁸, были проведены исследования по различным вопросам теории и практики переводоведения.

Изучением термина «детская литература» занимались известный американский педагог и литературный критик П.Холидейл, английский писатель М.О.Гренби²⁹, русский критик В.Г.Белинский³⁰, узбекский исследователь Д.Халилова³¹.

Интерес к проблеме перевода детской художественной литературы возник в XX веке. Проблематике изучения как перевода детской литературы,

²⁷ Jobe R. Translation. In: Hunt, (Ed.). International companion encyclopedia of children's literature. New York: Routledge, 1996. – 944 p; Cowie A.P. Phraseology: Theory, Analysis, and Applications. – USA, Oxford University Press, 2012. – 272 p; Baker M. Corpus-based Translation Studies: the Challenges that Lie Ahead. In Terminology, LSP and Translation. Studies in Language Engineering in Honour of Juan C. Sager, H. Somers (ed). – Amsterdam: John Benjamins, 1996. – 271 p; Гачечиладзе Г.Р. Художественный перевод и литературные взаимосвязи. – М.: Советский писатель, 1972. – 53 с; Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты): Учеб. для интов и фак. иностр. яз. – М.: Высшая школа, 1990. – 253 с; Гак В.Г. Языковые преобразования. – М.: Школа «Языки русской культуры», 1998. – 141 с; Чуковский К.И. Высокое искусство. – М.:Терра - Книжный клуб, 2001.- 54 с.; Бархударов Л.С. Язык и перевод (Вопросы общей и частной теории перевода) / Л.С. Бархударов. – М.:Международные отношения, 1975. – 196 с; Латышев Л.К. «Курс перевода» (Эквивалентность перевода и способы её достижения), Учебное пособие. — М.:Международные отношения, 1981. – 248 с.; Рецкер Я.И. Теория перевода и переводческая практика. – Р. Валент, 2007. – 241 с; Гарбовский Н.К., Теория перевода – Издательство Московского Университета, 2004. – С.67; Виноградов В.С. Перевод. Романские языки. Общие и лексические вопросы - Москва: Книжный дом «Университет», 2009. – 43 с; Казакова Т.А. Художественный перевод. Теория и практика. – Санкт-Петербург: Инъязиздат, 2008. – 18 с; Федоров А.В. Введение в теорию перевода: лингвистические проблемы. Москва : Изд. лит. на иностр. яз.,1958. – с 394;

²⁸ G'aybulloh as-Salom Tarjima nazariyasi va amaliyoti fanidan ma'ruza matni. – Toshkent, 2003 – 54 b; J.Sharipov Vadiiy tarjimalar va mohir tarjimonlar, T., 1972, 76 b; Ф.Рахимов. Таржима назарияси ва амалиёти. – Дарслик-мажмуа. — Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2016. — 176 б; Ф.Саидов Матн ва таржима:Филол. фанлари д-ри ...дисс. – Тошкент: 1992;

²⁹ Hollindale P. Signs of Childness in Children's Books/ P. Hollindale. – Paperback Bunko, January 1, 1750. – 140 p; Grenby M.O. The origins of children's literature, University of Newcastle upon Tyne, Andrea Immel, Princeton University, New Jersey. – Publisher: Cambridge University Press, 2009. – 324 p;

³⁰ Белинский В.Г., Чернышевский Н.Г., Добролюбов Н.А. О детской литературе. М., 1983 – 432 с..

³¹ Xalilova D. "Bolalar adabiyoti va folklor" fanidan O'quv metodik majmua, Toshkent, 2005. – 24 b.

так и мировой литературы, посвящали свои труды такие зарубежные исследователи как В.Дукмак, А.Челалга, Х.З.Хусейн, Т.Рейнберт, Ш.Бери, Г.Томсон³², Е.Ксени А.Ю.Исаковская, Р.И.Сергеева, А.С.Еркина, Л.Цзинюй, А.В.Мищенко³³, и наши соотечественники М.К.Бакаева, Г.А.Остонова, М.И.Собирова, М.А.Холматова, Г.Саломов, К.Муссаев³⁴. Перечисленные исследования, оперирующие огромным фактическим и теоретическим материалом, содержат научные умозаключения о переводческом процессе, как художественной литературы в целом, так и детской художественной литературы в частности.

Однако, такие переводческие вопросы как выбор подходящих видов трансформаций для решения фонетических, лексических, грамматических и стилистических проблем перевода современной детской литературы рубежа XX-XXI веков и в мировом, и в узбекском переводе остались за пределами перечисленных исследований.

Связь диссертационного исследования с планами научно-исследовательских работ высшего образовательного учреждения, где выполнена диссертация. Тема диссертации является составной частью перспективного плана научно-исследовательской работы, проводимой в рамках кафедры английского языка и литературы Термезского государственного университета по теме «Актуальные проблемы типологического изучения лексико-семантической системы языка: диахрония и синхрония» (ИТА-12-09-2012).

Целью исследования является выявление лексических, грамматических, фонетических и стилистических проблем перевода английской детской

³² Dukmak W. The Treatment of Cultural Items in the Translation of Children's Literature (The case of Harry Potter in Arabic), 2021. – 330 p; Chelalga A. Investigating Difficulties in Translating Cultural References in Children's Literature. Case study: J. M. Barrie's Peter Pan, 2016. – 65 p; Zejnab Huseyn T. K. Strategies and Motivations in Translated Children's Literature: Defoe's Robinson Crusoe as a Case Study, 2010. – 129 p; Berry Ch. Publishing, translation, archives: Nordic children's literature in the United Kingdom, 2013. – 470 p; Thomson-Wohlgemus Gabriele. Children's Literature and its Translation. An Overview, 1998. – p 37; Xenì E. Issues of Concern in the Study of Children's Literature Translation, 2011. – 31 p.

³³ Xenì E. Issues of Concern in the Study of Children's Literature Translation, 2011. – 22 p; Исаковская А.Ю. Детская сказка в русской советской литературе (рецепция мировых сюжетов) : Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 2012. – 24 с; Разина И.С. Соотношения категорий реалистического и фантастического в современной британской интеллектуальной детской литературе (на примере творчества Джонс У. и Амонда Д.): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. Нижний Новгород, 2018. – 28 с; Еркина А.С. Проблемы перевода детской художественной литературы на примере повести-сказки Отфрида Пройслера "Die kleine hexe": Выпускная квалификационная работа. – Владивосток, 2018. – 67 с; Цзинюй Л. Особенность перевода волшебных сказок на примере перевода китайских сказок на русский язык: магистерская диссертация по направлению: 45.04.02 – Лингвистика. – Екатеринбург, 2019. – 94 с; Мищенко А. В. Когнитивно-коммуникативные особенности детского американского кинодискурса и способы их передачи при переводе (на материале телесериала "КС Undercover"): магистерская диссертация по направлению подготовки: 45.04.02 - Лингвистика / Мищенко, Анастасия Викторовна. - Томск, 2020. – 110 с.

³⁴ Бакаева М. Англия ва АҚШ адабиётидан ўзбек тилига шеърлий таржима ва қиёсий шеършунослик муаммолари: Филол. фанлари д-ри ...дисс. – Тошкент, 2004. – 314 б; Остонова Г.А. "Минг бир кеча" асари ўзбекча таржималарининг қиёсий тадқиқи (давр, услуб ватаржима аниқлиги муаммолари)": Филол. фанлари д-ри ...дисс. Тошкент, 2016. – 128 с; Собирова М.И. «Бобурноманинг» инглизча таржималарида муаллиф услуби ва бадииятини қайта тиклаш муаммолари (Лейден-Эскриж, Беверидж ва Текстон таржималарининг қиёсий тахлили асосида) : Филол. фанлари д-ри ...дисс. Тошкент – 2016. – 122 б; Холматова М.А. Проблемы искусственного перевода классической лирики на английский и русские языки: Филол. фанлари д-ри ...дисс. – Тошкент, 2016. – 130 с; Mussayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. : Filolog. Fanlari d-ri...diss. –Toshkent, Fan, 2005. – 121 b.

художественной литературы на русский и узбекский языки посредством имеющихся переводов.

Задачи исследования заключаются в следующем:

показать важнейшие достижения теоретической разработки вопроса о детской художественной литературе, а также путём выявления теоретической основы исследования с углубленным изучением данного понятия определить роль перевода в детской художественной литературе;

выявить особенности межкультурного различия узбекской, английской и русской детской художественной литературы;

проанализировать лексические, грамматические, фонетические и стилистические трансформации на примере переводов произведения Роальда Даля «Чарли и шоколадная фабрика» на русский и узбекский языки;

обосновать проблемы перевода произведения Роальда Даля «Матильда» с английского на узбекский язык путём анализа межкультурных лексем, а также лексем для выражения эмоций (злобы, радости и страха).

В качестве **объекта** диссертационного исследования были выбраны произведения Роальда Даля «Чарли и шоколадная фабрика», «Матильда» и их переводы, сделанные на русском и узбекском языках.

Предметом исследования являются лексические, грамматические, фонетические, стилистические проблемы, встречающиеся при прямом переводе произведений Роальда Даля «Чарли и шоколадная фабрика» и «Матильда».

Методы исследования определяются указанными выше задачами. Для анализа переводов произведений были использованы методы: лексико-семантический, сравнительно-сопоставительный, классификационный, описательный, лингвокультурологический, контекстуальный, а также статистический.

Научная новизна диссертационной работы определяется тем, что:

